

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

4-kurs “B” guruhi talabasi

MULLAJONOV BAHODIR

VIZANTIYA VA VARVAR DAVLATLARINING
O‘ZARO
ALOQALARI TARIXIDAN

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi B. Abdullayev

Andijon – 2016 yil

R E J A

Kirish

I.bob. Vizantiya imperiyasida xalqaro aloqalarni shakllanishining o'ziga xos tomonlar

II.bob. Vizantiyaning Yustinian davridagi tashqi siyosati va harbiy yurishlari

III.bob. Vizantiyaning Yevropa mamlakatlari bilan olib borgan xalqaro aloqalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishishimiz natijasida jamiyatimizning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, Vatanimiz va jahon tarixiga vatanparvarlik nuqtai nazaridan qiziqish ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹ - deb ta'kidlab o'tadi.

Sobiq sovet davlati hukmronligi yillarida eng qadimgi davrdan to XX asr oxiriga qadar bo'lgan tariximiz sohtalashtirildi. Endilikda, ya'ni istiqbol yillarida tarixshunosligimizda bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz va jahon tarixiga e'tibor borgan sari rivojlanib bormoqda.

Hozirda jahon mamlakatlari tarixinining har bir atributiga e'tibor qaratish, uni o'rganish, tahlil qilish, xatolarni qo'llamaslik, ijobiy jihatlarni vatanimiz taraqqiyotida qo'llash muhim hisoblanadi.

O'zlikni anglash - eng avvalo o'tmishni o'rganishda, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan xar bir inson o'z ajdodlari kim bo'lganligi, ota-bobolari nima bilan shug'ullanganligi va qanday hayot kechirganligini bilib olishga intiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "....yaqin vaqtlargacha ijtimoiy fanlar aslida siyosat manfaatlariga hizmat qilar edi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashga, bu tadqiqotlarning doirasi, harakteri va yo'nalishlariga, jamiyatshunos olimlarning dunyoqarashi va metodologiya yo'l-yo'riqlariga o'z tamg'asini bosdi."²

Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat munosabatlarda o'ziga xos o'ringa ega. U ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlar, xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin.

Xalqaro munosabatlarda jahon hamjamiyatidagi davlatlar o'rtasidagi siyosat olib borishda o'zaro manfaatlarini hisobga olish zarurligini anglab etish va uni hisobga olgan holda yondashish zarur. Bu xalqaro munosabatlarda siyosat tamoyilining ayrim davlatlar darajasidan chiqqanligini, umuminsoniy qadriyatlar xalqaro munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan: siyosat tarixi, uning o'ziga xos oqibatlari turli davlatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilot o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularning manfaatlariga mos tushadigan tamoyillarga asoslanish zarurligini taqazo etadi.

Ikkinchidan: bugungi kungacha jahon sivilizatsiyasiga katta xavf solib turgan qurollar (yadro quroli, kimyoviy qurollar) to'planib qolganligini va uni sivilizatsiyasiga bo'lgan harakatining mavjudligini va uning oldini olish bilan bog'liq.

Uchinchidan: xalqaro munosabatlarda ayrim davlat rahbarlari, siyosiy partiyalar va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, yangi qurollarning sivilizatsiyaga bo'lgan intilishlari, davlatlarga nisbatan munosabatda "zo'ravonlik", "kuchga harakatlari" va undan manfaatdor kuchlarning mavjudligi, xalqaro siyosatda o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida, ixtiloflar paydo bo'lganda uni siyosiy yo'llar bilan hal etish ma'rifiy yo'l ekanligini tan olish zaruriyati bilan bog'liq.

Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishlab chiqilgan normalarga amal qilish, yangi jahon urushini oldini olish va uning oqibatlarini hamma uchun bir xilda ekanligini, yer yuzida hayotni saqlab

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. - Б.71.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011. - Б.88

qolish, insoniyat taqdiri bilan bog'liqmuammo ekanligini xalqaro siyosatda hisobga olgan holda munosabatda bo'lish zarurligi davlatlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar o'rtasida xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro kuchlar nisbatan muvofiqlashtirgan holda siyosat yurgizishni taqozo etadi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni “ kuchga tayangan holda” hal etish insoniyat boshiga og'ir musibatlarni keltirib chiqarish aniq. Bunga insoniyat tarixida bo'lib o'tgan qonli urushlar misol bo'lib, buni har bir siyosatdon esdan chiqarmasligi zarur.

Xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda munosabatda bo'lish kelajakka ishonch demakdir. Bu yer yuzida tinchlikni saqlab qolish uchun xalqaro munosabatlari o'zaro ishonchga vat eng manfaatlar asosida qushilishiga olib keladi.

XX asr xalqaro munosabatlarda sodir bo'lgan muhim o'zgarishlar bilan harakterlanadi. Bugungi xalqaro munosabatlar nazariyasida “tashqi siyosat” tushunchasi bilan birga xalqaro siyosat tushunchasi ham keng ishlatila boshlandi.

Tashqi siyosat - bu davlatlarning mamlakat tashqarisida davlatlararo munosabatlarda o'zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat.

Xalqaro siyosat - bu xalqaro munosabatlarda ishtirok etadigan turli davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro meyorlar, normalar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarni saqlab turishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro siyosat alohida shaxslar yoki davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarnigina emas, balki muayyan guruh yoki davlat manfaatlarining amalga oshirishi bo'yicha aloqalarni, faoliyatlari sohalarini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi va davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi.

Har bir davlatning rivojlanishi tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikning ta'siri toboro oshib bormoqda. Bu o'z navbatida, bugungi umumbashariy muammolar bilan bog'liq. Chunonchi, tinchlik uchun kurash, urush xavfini oldini olish, ekologiya, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar jahon jamoatchiligining dunyo oldidagi mas'uliyatini oshirmoqda. Bu muammolar har bir davlatning ichki siyosati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ularni bir-birini tushungan holda siyosat olib borishga undamoqda va bunday siyosat tarafdorlari ko'paymoqda.

Xalqaro siyosatda qo'llangan xalqaro normalar, tamoyillarga amal qilish, o'zaro munosabatlarda “bir tomonlama” manfaatdorlikni nazarda tutgan holda siyosat olib borish yoki munosabatda bo'lishi faqat davlatlarning rivojiga salbiy ta'sir etib qolmasdan , umuman dunyoda siyosiy barqarorlikni buzulishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro siyosatda bulayotgan o'zgarishlarni atroflicha o'rganish, siyosiy jarayonlarga va uning rivoji yo'nalishlariga xolisona yondoshish va baho berishni taqazo etadi.

Ma'lumki xalqaro siyosatda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladigan qonuniyatlar va tamoyillar davr o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Masalan xalqaro siyosatda XX asrning o'rtalaridan 80-yillargacha “kuchga tayanish” asosida munosabatlar bilan ichki siyosatda “harbiy kuch-qudrati” mustaxkamlash bilan bog'liq faoliyatlar ko'zga tashlanadi. Xalqaro munosabatlarda davlatlarga nisbatan “dushmanlik” yoki ishonchsizlik bilan yondoshish ular o'rtasidagi munosabatlarning asosiga kuchdi. XX asrning oxirida dunyo siyosiy xaritasida o'zgarishlar sodir bo'ldi, jahon hamjamiyati shakllandi.

G'arbiy Rim imperiyasida German kabilalari tomonidan istilo kilingandan keyin xam Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U xatto uzini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayverdi. Latin tili yana uzok vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili bulib koldi.

Lekin Sharqda imperiyaning davlat tili bo'lib koldi. Lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Ba'zi olimlar huddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydi.

Sharqiy imperiyaning yuqorida qayd qilib o'tilgan xususiyatlari natijasida uning varvarlarga bulgan munosabatlari ham boshqacha bir xarakterga ega bo'ldi. Vizantiya G'arbiy imperiyaga o'hshab varvarlar tomonidan bosib olinmadi ham, yashashdan to'htamadi ham. Jumladan, Vizantiya german qabilalari vessgotlar, ostgotlarning va boshqa qabilarning hujumlariga bardosh berdi, bu qabilalar esa, Vizantiyadan G'arb tomon kirib borib, u yerda o'zlarining varvarlik qiroliklarini tuzdilar. Vizantiya qadimgi Rimga xos bo'lgan ijtimoiy va siyosiy traditsiyalarni o'zida saqlab, ilgorigidek «Romeya davlati»ligicha qolib kelayotgan bo'lsada, uning ijtimoiy tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormoqda edi. Oqibat-natijada Vizantiya qam, «varvarlashtirishdan» qochib qutilmadi, bu narsa Bolqon yarim oroliga juda ko'pdan-ko'p slavyan qabilalarning kelishida nomoyon bo'ldi. Shunday qilib, shuni e'tirof etish mumkinki, oqibat natijada germanlar G'arbiy Rim imperiyasiga nisbatan qanday rol uynagan bo'lsalar, slavyanlar ham Vizantiyaga nisbatan (ozgina farq bilan) huddi shunday rol o'ynaydilar.

IV asrning oxiridan Rim imperiyasi chegaralarini yorib o'tgan german qabilalari birin - ketin viloyatlarni bosib olishardi. Imperiya ushbu davrda ichki inqiroz va emirilish holatida edi.

Ichki inqiroz ayniqsa avj olgan G'arbiy imperiya birma - bir viloyatlarni yo'qotardi. Biroq mustaxkamroq bo'lib chiqqan Sharqiy imperiya ham varvarlar siquvini butun kuchini ishlatgan holda to'xtatib turardi. V asrning boshida vestgotlar Sharqiy Rim imperiyasining Bolqon viloyatlarini xarob etishdi, Italiyani er bilan yakson qilishdi va Rimni talon - taroj qilib ketishdi. Ispaniya va janubi - g'arbiy Galliyada vestgotlar o'z qirolligiga asos solishdi. Vandallar, svevlar, burgundlar, franklar imperiyadan birin - ketin viloyatlarni tortib olishardi. Xitoyning shimoliy chegaralaridan uzoq yo'l bosib kelgan ko'chmanchi - xunlar IV - V asrlarda Volgadan Reyngacha bo'lgan ulkan hududlarni bosib olishdi va o'zlarining qudratli davlatini barpo etishdi.

Ham Sharqiy imperiyaga, ham G'arbiy imperiyaga, varvarlar bilan nafaqat urush olib borish, balki murakkab siyosiy munosabatlarga kirishishga to'g'ri kelardi. Ushbu asnoda varvarlar va Rim imperiyasi, yoki aniqroq qilib aytganda ikki Rim imperiyasi, o'rtasida diplomatik munosabatlari paydo bo'lardi.

Varvarlar, G'arbiy imperiya viloyatlarida joylashib, tez sur'atda yangi ijtimoiy tartiblarga o'tishardi. Vujudga kelgan varvar qiroliklari o'rtasidagi chegaralar aniq va belgilangan emasdi. Nizolar nafaqat qurol vositasida, balki muzokaralar orqali ham hal etilardi. Varvarlar davlatlarining tashkil etilishi sayin ularda albatta o'zlarining diplomatiyasi paydo bo'lardi.

Sharqiy Rim imperiyasining (Vizantiyaning) diplomatik xizmati varvar qiroliklari uchun andoza qilib olinardi. Eski an'analarni saqlab qolgan Vizantiya diplomatiyasi butun o'rta asrlar diplomatiyasiga ulkan ta'sirini o'tkazdi.

Vizantiya diplomatiyasining asosiy vazifasi varvarlarni imperiyaga taxdid solish o'rniga unga xizmat qilishga majbur etish edi. Konstantinopolda varvarlarning knyazlik urug'lari orasidagi nizolarni ziyraklik bilan kuzatishardi. Eng muhimi ularning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, ustalik bilan nifoq solmoq, o'zaro nizolar orqali ularni zaiflantirmoq edi. Qo'shnilarni bilan shaxmat sipoxlari kabi muomala qilish mahorati Yustinian diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U o'zaro nizolarni keltirib chiqarishni butun bir tizim darajasiga ko'tardi.

Bundan tashqari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga harbiy aralashuv Yustinian siyosatining vositalaridan biri edi. Bunday siyosat vandallar va ostgotlar bilan bo'lgan urushlarda yorqin ifodasini topdi.

Diplomatiya savdoning rivojlanishiga xizmat qilardi. O'z navbatida savdo aloqalarining kengayishidan Vizantiyada diplomatiyaning eng qudratli qurollaridan biri sifatida foydalanishardi.

Xristian dinini yoyish ham Vizantiya imperatorlarining eng muhim diplomatik qurollaridan biri edi. Jumladan, Rus davlatida xristianlikning yoyilishi Vizantiyaning katta diplomatik g'alabasi edi. Xristianlikka kiritilgan mamlakatlarda Vizantiyaning ta'siri o'rnatilardi. Vizantiyaga qaram bo'lgan ruhoniylar qatlami, savodlikning yagona sohibi sifatida varvarlar davlatlarida katta rol o'ynardi.

Birinchi vazir boshqaruvi ostida bo'lgan tashqi ishlar idorasi (magister officiorum, keyinchalik "logofet droma"), xodimlarning katta tarkibiga ega bo'lib, uning ixtiyorida barcha tillardan tarjimonlar mavjud edi, elchilarni qabul qilish marosimining murakkab tartibini ishlab chiqdi.

Konstantinopol saroyi qoshida elchilik xizmatining ma'lum qoidalari ishlab chiqildi. Elchi hukmdorning vakili edi va muzokaralarni faqatgina unga berilgan vakolatlar doirasida olib borishi mumkin edi. Ushbu qoidani buzgan elchi qattiq jazoga tortilardi. Faqatgina kamdan - kam uchraydigan holatlarda imperator vakillariga butun ma'suliyatni o'z bo'yniga olib mustaqil muzokaralar olib borishga ruxsat berilardi.

Odatda elchilar yuqori martabaga ega bo'lgan insonlar edi. Ko'pincha Vizantiyada elchilarga yuqori unvonlar maxsus berilardi-ki, agar ular avval bunday darajaga egalik qilmagan bo'lsa.

Vizantiya elchilarga o'zga mamlakatlarda xatti - harakat va yurish - turishning aniq qoidalariga rioya qilish amr qilingandi. Elchi xushmuomalaligini, saxiyligini namoyon etishi, o'zga saroyda ko'rganlarini barchasini maqtashi kerak edi, ammo buni shunday amalga oshirish lozim edi-ki, bu Vizantiya tartiblariga nisbatan gina sifatida namoyon bo'lmasin; u sharoitga qarab ish tutmog'i biron - bir narsaga o'zgacha usullar bilan etishmoqning imkoni bo'lgan taqdirda kuchdan foydalanmasligi lozim edi.

Rasmiy jihatdan elchilarga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik buyurilardi. Lekin amalda har doim ham bunga rioya qilinmasdi. Elchilar tuzgan shartnoma faqatgina imperator ratifikatsiya (tasdiqlangandan) qilganidan so'ng kuchga kirardi.

Elchilar daxlsizligi taomiyili varvarlar tomonida tez o'zlashtirib olindi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, varvar qirollarining elchiliklarida Vizantiya odatlariga xos bo'lmagan hususiyatlar uchraydi. Varvar a'yonlari orasida muzokaralarning yozuv - chizuv qismini mustaqil olib borishga qodir ma'lumotli insonlar kam edi. Shuning uchun qirollarining elchiliklarida odatda ruxoniylar qatnashardi. Bunday holat vizantiyaliklarda juda kam uchardi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu, ya'ni "Vizantiya va Varvar davlatlarining o'zaro aloqalar tarixidan" mavzusiga ko'plab tarixchilar, siyosatchilar tomonidan murojaat qilinganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan, tarixchi-olimlarning aynan shu davr tarixi bilan shug'ullanganligini men internet tarmog'idagi mavzuga doir saytlardan bilib oldim va bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashdan o'sha saytlardan keng foydalanishga harakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Xar bir inson biror bir ishga kirishishdan avval albatta o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi. Jumladan, mening siyosatshunoslik, xususan g'arb davlatlari siyosatshunosligiga qiziqishim yuqori ekanligi sababli dunyoni larzaga keltirgan va ko'plab talofatlarga sabab bo'lgan ikkinchi jahon urushini yuzaga kelishiga sharoit yaratib bergan siyosiy o'yinlar va davlatlarning o'z manfaatlari yo'lida olib borgan siyosatlarini o'rganib tahlil qilishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

“Vizantiya va Varvar davlatlarining o‘zaro aloqalari tarixidan” mavzusining asl mohiyatini ochib berish va o‘rganuvchi va qiziquvchilarga mavzuni to‘liq tushunishlariga ko‘maklashish ham olib borayotgan tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. O‘rganayotgan davrdagi davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotini va mazkur davr diplomatiyasini tahlil qilish ham bitiruv malakaviy ishimizning vazifalaridan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti. Tadqiqotning nazariy asosini Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov asarlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishimiz Vizantiyaning tashkil topishdan boshlanib, uni usmoniy turklar tomonidan bosib olinishigacha bo‘lgan davrlarni qamrab olganligi sababli asosiy e’tibor o‘sha davrga oid nashrdan chiqqan maqolalar, ilmiy nashrlar, asarlar, ilmiy tadqiqot materiallari, mazkur davr to‘g‘risidagi materiallarga qaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu ilmiy tadqiqot uchun yangi hisoblanadi. Mavzuimizga bog‘liq mavzularda bir qator ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilganligi bizga ma’lum. Aynan biz o‘rganayotgan “Vizantiya va Varvar davlatlarining o‘zaro aloqalar tarixidan” mavzusiga alohida to‘htalmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida, biz ko‘proq manbalarga, xrestomatik asarlarga va internet saytlaridan olingan ma’lumotlarga tayangan holda voqea-hodisalarni qiyosiy tahlil asosida uzviylik, izchillik, holislik prinsiplari asosida yoritib, tahlil qilishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundaki, jahon tarixidagi bu qisqa davr tarixi, undagi ro‘y bergan ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar, turli xil nazariyalarning vujudga kelishini, siyosiy jarayonlar, ularning sabab va mohiyatini chuqur va har tomonlama o‘rganish orqali yangi-yangi ma’lumotlar vujudga keladi. Bitiruv malakaviy ishining natijasiga ko‘ra, bayon etilgan faktik materiallar va ilmiy xulosalardan Tarix fakulteti “Tarix” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan “Jahon tarixi (O‘rta asrlar tarixi)”, “Xalqaro munosabatlar tarixi”, “Siyosatshunoslik” va boshqa fanlar ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ish, kurs ishlarini tayyorlashda, to‘g‘arak mashg‘ulotlarini olib borishda manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi tuzilish jihatidan kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati hamda ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi ilovalardan tashqari elektron variantda 72 betni tashkil qiladi.

1. VIZANTIYA IMPERIYASIDA XALQARO ALOQALARNI SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

IV asrning oxiridan Rim imperiyasi chegaralarini yorib o‘tgan german qabilalari birin - ketin viloyatlarni bosib olishardi. Imperiya ushbu davrda ichki inqiroz va emirilish holatida edi.

Ichki inqiroz ayniqsa avj olgan G‘arbiy imperiya birma - bir viloyatlarni yo‘qotardi. Biroq mustaxkamroq bo‘lib chiqqan Sharqiy imperiya ham varvarlar siquvini butun kuchini ishlatgan holda to‘xtatib turardi. V asrning boshida vestgotlar Sharqiy Rim imperiyasining Bolqon viloyatlarini xarob etishdi, Italiyani er bilan yakson qilishdi va Rimni talon - taroj qilib ketishdi. Ispaniya va janubi - g‘arbiy Galliyada vestgotlar o‘z qirolligiga asos solishdi. Vandallar, svevlar, burgundlar, franklar imperiyadan birin - ketin viloyatlarni tortib olishardi. Xitoyning shimoliy chegaralaridan uzoq yo‘l bosib kelgan ko‘chmanchi - xunlar IV - V asrlarda Volgadan Reyngacha bo‘lgan ulkan hududlarni bosib olishdi va o‘zlarining qudratli davlatini barpo etishdi.

Ham Sharqiy imperiyaga, ham G‘arbiy imperiyaga, varvarlar bilan nafaqat urush olib borish, balki murakkab siyosiy munosabatlarga kirishishga to‘g‘ri kelardi. Ushbu asnoda varvarlar va

Rim imperiyasi, yoki aniqroq qilib aytganda ikki Rim imperiyasi, o'rtasida diplomatik munosabatlari paydo bo'lardi.

Varvarlar, G'arbiy imperiya viloyatlarida joylashib, tez sur'atda YAngi ijtimoiy tartiblarga o'tishardi. Vujudga kelgan varvar qirolliklari o'rtasidagi chegaralar aniq va belgilangan emasdi. Nizolar nafaqat qurol vositasida, balki muzokaralar orqali ham hal etilardi. Varvarlar davlatlarining tashkil etilishi sayin ularda albatta o'zlarining diplomatiyasi paydo bo'lardi.

Sharqiy Rim imperiyasining (Vizantiyaning) diplomatik xizmati varvar qirolliklari uchun andoza qilib olinardi. Eski an'analarni saqlab qolgan Vizantiya diplomatiyasi butun o'rta asrlar diplomatiyasiga ulkan ta'sirini o'tkazdi. Vizantiya diplomatiyasining tamoyillari va tashqi usullari imperator Yustinian I (527 – 565 yy.) faoliyatda eng yorqin ifodasini topdi. Ushbu davrda Suarqiy Rim imperiyasi qudratining eng yuksak darajasiga etgandi.

Yustinian mohirona diplomatik o'yinlarni harbiy zarbalar bilan birgalikda ishlatardi-ki, ular uning imperiyasi sarxadlarini g'arb tomon anchagina kengaytirdi.

Vizantiya diplomatiyasining asosiy vazifasi varvarlarni imperiyaga taxdid solish o'rniga unga xizmat qilishga majbur etish edi. Konstantinopolda varvarlarning knyazlik urug'lari orasidagi nizolarni ziyraklik bilan kuzatishardi. Eng muhimi ularning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, ustalik bilan nifoq solmoq, o'zaro nizolar orqali ularni zaiflantirmoq edi. Qo'shnilarni bilan shaxmat sipoxlari kabi muomala qilish mahorati Yustinian diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U o'zaro nizolarni keltirib chiqarishni butun bir tizim darajasiga ko'tardi.

Bundan tashqari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga harbiy aralashuv Yustinian siyosatining vositalaridan biri edi. Bunday siyosat vandallar va ostgotlar bilan bo'lgan urushlarda yorqin ifodasini topdi.

Diplomatiya savdoning rivojlanishiga xizmat qilardi. O'z navbatida savdo aloqalarining kengayishidan Vizantiyada diplomatiyaning eng qudratli qurollaridan biri sifatida foydalanishardi.

Xristian dinini yoyish ham Vizantiya imperatorlarining eng muhim diplomatik qurollaridan biri edi. Jumladan, Rus davlatida xristianlikning yoyilishi Vizantiyaning katta diplomatik g'alabasi edi. Xristianlikka kiritilgan mamlakatlarda Vizantiyaning ta'siri o'rnatilardi. Vizantiyaga qaram bo'lgan ruhoniylar qatlami, savodlikning yagona sohibi sifatida varvarlar davlatlarida katta rol o'ynardi.

Birinchi vazir boshqaruvi ostida bo'lgan tashqi ishlar idorasi (magister officiuem, keyinchalik "logofet droma"), xodimlarning katta tarkibiga ega bo'lib, uning ixtiyorida barcha tillardan tarjimonlar mavjud edi, elchilarni qabul qilish marosimining murakkab tartibini ishlab chiqdi.

Konstantinopol saroyi qoshida elchilik xizmatining ma'lum qoidalari ishlab chiqildi. Elchi hukmdorning vakili edi va muzokaralarni faqatgina unga berilgan vakolatlar doirasida olib borishi mumkin edi. Ushbu qoidani buzgan elchi qattiq jazoga tortilardi. Faqatgina kamdan - kam uchraydigan holatlarda imperator vakillariga butun ma'suliyatni o'z bo'yniga olib mustaqil muzokaralar olib borishga ruxsat berilardi.

Odatda elchilar yuqori martabaga ega bo'lgan insonlar edi. Ko'pincha Vizantiyada elchilarga yuqori unvonlar maxsus berilardi-ki, agar ular avval bunday darajaga egalik qilmagan bo'lsa.

Vizantiya elchilarga o'zga mamlakatlarda xatti - harakat va yurish - turishning aniq qoidalariga rioya qilish amr qilingandi. Elchi xushmuomalaligini, saxiyligini namoyon etishi, o'zga saroyda ko'rganlarini barchasini maqtashi kerak edi, ammo buni shunday amalga oshirish lozim edi-ki, bu Vizantiya tartiblariga nisbatan gina sifatida namoyon bo'lmasin; u sharoitga qarab ish tutmog'i biron - bir narsaga o'zgacha usullar bilan etishmoqning imkoni bo'lgan taqdirda kuchdan foydalanmasligi lozim edi.

Rasmiy jihatdan elchilarga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik buyurilardi. Lekin amalda har doim ham bunga rioya qilinmasdi. Elchilar tuzgan shartnoma faqatgina imperator ratifikatsiya (tasdiqlangandan) qilganidan so'ng kuchga kirardi.

Elchilar daxlsizligi taomiyili varvarlar tomonida tez o'zlashtirib olindi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, varvar qirollarining elchiliklarida Vizantiya odatlariga xos bo'lmagan hususiyatlar uchraydi. Varvar a'yonlari orasida muzokaralarning yozuv - chizuv qismini mustaqil olib borishga qodir ma'lumotli insonlar kam edi. Shuning uchun qirollarining elchiliklarida odatda ruxoniylar qatnashardi. Bunday holat vizantiyaliklarda juda kam uchrardi.

Varvar qabilalari orasida Rim diplomatiyasining usullari nafaqat Vizantiya, balki Rim papasi kuriyasi¹ tomonidan yoyilardi. Kuriya eski imperatorlik devonxonasining odatlari va usullaridan ko'plarini saqlab qolgan edi.

Papa diplomatiyasining ta'siri juda kuchli tarzda butun o'rta asrlar siyosiy tarixi davomida sezilardi.

G'arbiy - Rim imperiyasining qulashi va Italiyada varvarlar hokimiyatining o'rnatilishi papalikning xalqaro ahvolini murakkablashtirdi. Shu sababli papalar Vizantiya imperatoridan umidlari katta edi. Konstantinopolda papalarning doimiy vakillari sanalmish apokrisiariylar mavjud edi. Sof cherkov masalalaridan tashqari apokrisiariylarga Vizantiya saroyidagi siyosiy kayfiyatlarni kuzatish vazifasi ham qo'yilgandi.

Yustinianing Italiyani zabt etishi va shundan so'ng tez orada ro'y bergan Apennin yarimorolining langobardlar tomonidan bosib olinishi natijasida papalar Rim hukmdorlariga aylanishdi.

Ular faqat nomigagina Vizantiya imperatoriga bo'ysunardilar, lekin faktik jixatdan deyarli mustaqil edilar. Ammo Vizantiyaning ta'siri asta - sekin zaiflashdi. Shu paytning o'zida G'arbda Franklar davlati kuchaymoqda edi-ki, papalar unga ham Vizantiyaga, ham langobardlarga qarshi tayanch sifatida qarashardi.

VII asrda arablar istilolari natijasida zaiflashgan Vizantiya Rim papalariga qarshilik qila olmadi. Papalar Vizantiya imperatorlariga qaramlikdan qutulib, mustaqil hukmdorlarga aylanishdi.

Rim papalari, langobardlardan o'zini himoya qilish uchun yordam so'rab, franklarga murojaat etishdi. Franklar esa, o'z navbatida, VIII asrning o'rtalarida Italiyaga bostirib kirishdi va langobardlarni tor - mor qilishdi. 754 yil shartnomasiga ko'ra langobardlar qiroli nafaqat Rimni tinch qo'yish, balki papaga Ravenna, Rimni, Urbino va boshqa shaxarlarni topshirish majburiyatini oldi. Biroq, langobardlar qirolini o'z majburiyatlarni bajarishga majbur etish uchun yana bir harbiy ekspeditsiya zarur bo'ldi.

Franklar qiroli va papa o'rtasida chambarchas aloqa o'rnatildi-ki, u doimiy tarzda elchiliklar bilan o'zaro almashuv, hamda Vizantiya va boshqa saroylar huzuriga qo'shma elchiliklar yuborish orqali o'z ifodasini topdi. Barcha ushbu elchiliklarda papa elchilari tobelik rolini o'ynashardi.

Papalar o'zlarining tashqi aloqalarida erkinlikka ega emasdi va franklar hukmdorlaridan "maslahat" so'rashga majbur edi. Papaning qaramligi ayniqsa Buyuk Karl (768 - 814yy.) davrida kuchaydi.

Buyuk Karlning imperiyasi Evropada eng yirik kuchga aylandi. Vizantiya bilan munosabatlar Karl diplomatiyasida o'ta muxim o'rinni egallardi. Vizantiya arablar, bolgarlar, avarlarning hujumlarini qiyinchilik bilan qaytarayotgan va ta'siri zaiflashayotgan paytda G'arbiy imperiyaning nufuzi juda oshib ketdi. Karl Sharqda bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi. Avval Vizantiya imperatori himoyasi ostida bo'lgan Falastindagi "muqaddas joylar" endi Karl vasiyligiga o'tdi.

¹ Kuriya – Rim Papasi hokimiyatining markaziy muassasalari

Koronatsiyasi (taxtga mingan xukmdorga toj kiydirish marosimi) o'tkazilgan yilda Quddus patriarxi Karlga "Iso payg'ambar qabri" ning kalitlarini Quddus shahrining bayrog'lari va kalitlariga qo'shib topshirdi.

Karl huzuriga, poytaxti Axen shahriga Daniya, Angliya va boshqa mamlakatlardan elchilar etib kelardi. Alfons II, Asturiya qiroli, SHotlandiya qirollari unga o'z elchiliklarini yuborishardi. Ularning barchasi G'arb imperatori bilan do'st bo'lish va ittifoq tuzishga intilardi.

IX asrda Pridnestrova va unga tutashgan erlarda qudratli qadimgi Rus davlati yuzaga keldi. IX asr oxirida urushlar va istilolar natijasida qadimgi Rus davlati shu qadar kuchga ega bo'ldi-ki, qo'shni xalqlar buni inobatga olmasdan iloji yo'q edi.

Qadimgi Rus davlati murakkab xalqaro munosabatlar tizimiga juda erta kirib bordi.

Rus davlati janubda Vizantiya va Dunay bo'yi slavyanlarning Bolgariya davlati, sharqda Xazar xoqonligi va Volga Bolgariyasi shimolda Skandinaviya bilan aloqalarga ega edi. Skandinaviya bilan esa Kiev knyazlarini sulolaviy munosabatlar bog'lab turardi. O'sha erlardan knyazlar yollanma harbiy kuchlarni olishardi, varyaglardan bo'lgan sarguzasht ishqibozlarining to'xtovsiz yopirilib kelishi ham o'sha joylardan ro'y berardi. Xazarlar erlari orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariga olib boradigan savdo yo'li o'tardi-ki, ushbu mintaqaga ruslar qullar va mo'ynani tashib borishardi. Bir paytlar xazarlar xoqonlari qadimgi Rus knyazlari bilan Dnepr bo'yi aholisidan o'lpon yig'ish uchun kurashishga urinib ko'rishdi.

Sharqiy slavyanlar tarixiga ularning Vizantiya bilan qo'shni bo'lganligi katta ta'sir o'tkazdi.

Vizantiya Qadimgi Rus uchun bozor sifatida xizmat qilardi-ki, bu erda knyazlar va drujinachilar mo'yna, qullarni sotishardi va zar bilan to'qilgan matolar, hamda zeb - ziynat buyumlarini olishardi. Sargradda (Konstantinopolda) "majusiy Rus davlati" ko'rkam Vizantiya madaniyati bilan tanishardi.

Sargradning boyliklari va hashamati bosqinchilari doimo o'ziga tortib kelgan: Rus davlati tomonidan Vizantiyaning Qora dengiz egaliklari va Konstantinopolning o'ziga qilingan bir qator vayron etuvchi yurishlarning davri IX asrdan XI asrgacha cho'ziladi.

Vizantiya qudratli Rus davlatini o'zining siyosiy tizimiga tortishga juda erta intilishni boshladi. Maqsad, bir tomondan, ushbu davlatning imperiyaga nisbatan solayotgan taxdidini pasaytirish va ikkinchi tomondan esa, Rus davlatidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish edi.

Cho'qintirishga Vizantiya imperatorlari va siyosatchilari Rus davlatining imperiyadan bavo-sita vassal qaramligi sifatida qarashardi. Biroq, bunday siyosat muvaffaqiyatli bo'lmadi. Kiyev knyazlari har safar harakat erkinligini o'z qo'llarida saqlab qolaverishdi.

Cho'qintirishdan so'ng Rus davlatining xalqaro aloqalari sezilarli darajada kengaydi va mustahkamlandi. Qadimgi Rus davlati nafaqat Vizantiya, balki Evropaning katolik davlatlari bilan munosabatlarga, ularga teng va to'la huquqli sherik sifatida, kirib bordi. Rus davlatining tashqi siyosiy aloqalari faqatgina qo'shni mamlakatlar (Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Skandinaviya mamlakatlari va boshq.) doirasida cheklanmadi, balki Germaniya, Fransiya va boshq. kabi mamlakatlar bilan ham rivojlandi.

Istilolar negizida yuzaga kelgan varvar davlatlari uzoqqa chidamaydigan bo'lib chiqdi. Buyuk Karlning davlati o'zining birinchi imperatoridan so'ng ko'p umr ko'rmadi. Parchalanishning yaqinlashib kelayotganligi Karl hayotining oxirgi yillarida ham sezilardi. Imperiyaning emirilishi uning o'g'li Lyudovik Xudojo'yni (814 – 840 yy.) hukmronligida avj oldi. Lyudovik, o'zida oliy hokimiyatni saqlab qolib, imperiyani o'g'illariga bo'lib berdi. Farzandlar esa otasiga qarshi urush boshladilar. Uning o'limdan (840 y.) so'ng bir - birov-lari bilan jang olib borishdi. Karl Yaltiroqbosh va Lyudovik Nemis Strasburg shaxrida katta akasi - Lotarga qarshi bitim tuzishdi. Lotar imperatorlik

tojini olgandi va o'z huquqlarini amalda bajarmoqchi edi. "Strasburg qasami" - bu lotin yoki yunon tilida emas, balki fransuz va nemis tillarida tuzilgan birinchi diplomatik hujjatdir. Mag'lubiyatga uchragan Lotar yon berdi va 843 yilda Verden shahrida imperiyani uch aka - uka o'rtasida bo'lib olish to'g'risidagi mashhur shartnomasi tuzildi. Rasmiy jihatdan imperiyaning mavjudligi tan olindi, yoki, aniqroq qilib aytganda, imperator unvonini saqlanib qolindi. Ushbu unvon katta akasi - Lotarga o'tgandi. Ammo imperiya erlari uch qismga bo'lindi. Imperiyaning g'arbiy erlari - "g'arbiy franklar qirolligi", keyinchalik Fransiya nomi bilan atalgan, - Karl Yaltiroqbosh qo'liga o'tdi; sharqiy qism - "sharqiy franklar qirolligi", keyinchalik Germaniya deb nomlangan, - Lyudovik Nemisga berildi; Lotarga esa Karl va Lyudovikning erlari oralig'idagi hududlar, ya'ni Reyn daryosining quyilish joyidan Rona daryosining quyilish joyigacha bo'lgan erlar va Italiya tegdi. Verden shartnomasidan so'ng yangi to'qnashuvlar ro'y berdi va yangi bitimlar imzolandi. Buyuk Karl imperiyasi bir qator mustaqil davlatlarga - Fransiya, Germaniya, Italiya va Burgundiyaga yoki Arelatga batamom parchalanib ketdi. Lekin, ular nomiga davlatlar edi xolos. IX - XI asrlarda G'arbiy Evropada siyosiy tarqoqlik hukmronlik qilardi. Pirovardida, kuch alohida feodal egaliklari o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishida hal qiluvchi omilga aylandi va ko'p hollarda syuzeren o'z vassali oldida titrardi. Zotan, bunday holatda davlat va shaxsiy egalik o'rtasidagi, umumiy va shaxsiy huquq o'rtasidagi, ichki va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi chegara yo'qolaridi.

Sud va boshqaruv huquqiga, solig'larni yig'ish va tanga - chaqa zarb qilish huquqiga, hamda harbiy kuchga ega bo'lgan har qanday etarlicha qudratli senor o'zini mustaqil hukmdor sifatida xis qilishi, kim bilan xohlasa tinchlik shartnomalari va ittifoqlar tuzishi mumkin edi. O'ta feodal tarqoqlik va Evropani bo'lib tashlagan ko'plab mayda chegaralarning mavjudligi sharoitida yirik davlatlar sarxadlari siyqalanib ketishi xalqaro munosabatlar to'g'risidagi tushunchani chigallashtirib yuborardi. Senoriya tushunchasi davlat tushunchasini surib chiqarardi.

Yirik zamindor hukmdorga, davlat esa votchinaga (merosiy yer - mulkiga) aylangandi. Barcha joylarda shaxsiy urush huquqi o'rnatildi. Shu sababdan shaxsiy diplomatiya haqida so'z yuritish mumkin. Ikki feodal senor mustaqil davlatlarning rahbarlari kabi muzokaralar olib borishardi. Yirik senorlar o'zlarini mustaqil deya his qilishardi va shu sifatda ham horijiy, ham o'zining qirollari bilan munosabatlarni amalga oshirishardi. Bunday holat ham dunyoviy, ham diniy senorlarga taaluqli edi. Topshiriqlarni og'zaki yoki ramziy harakatlar yordamida etkazib bergan maxsus jarchilar (yoki xabarchilar, darakchilar) orqali urush e'lon qilish yoki tinchlik tuzishning rasmiy usullari ishlab chiqildi. Ushbu jarchilar geroldlar deb nomlanishdi. Ular o'z senorlarining gerblarini (tamg'alarini) taqib yurishardi, va ularning shaxslari elchilar kabi daxlsiz hisoblanardi.

Feodal anarxiyadan ziyon tortgan cherkov bunday tartibsizlikda muayyan tartib o'rnatishga bexuda intilardi. SHaxsiy urush huquqini cheklashga yoki yumshatishga qaratilgan ayrim qoidalarini kiritishga urinishlar qilinar edi.

Turli mamlakatlarda qirol xokimiyatining shaxsiy urushlarga barxam berish yo'lidagi intilishlarga qaramasdan, ular butun o'rta asrlar davrida astoydil davom etaverdi. Feodal Evropada shaxarlarning tarix maydoniga chiqishi qator hollarda hokimiyatning tarqoqligini murakkablashtirdi. Siyosiy mustaqillikka erishishga intilgan shaharlar hattoki shaxsiy urush huquqi mavjud bo'lgan barcha belgilarga ega o'ziga xos kollektiv senorlarga aylanishdi.

Franklar monarxiyasining shitob bilan emirilishini to'xtatishga samarasiz uringan cherkov ham feodal parchalanish jarayoniga duchor bo'ldi.

IX asr o'rtalarida G'arbiy va Sharqiy cherkovlar o'rtasidagi, ya'ni katoliklik va pravoslavlik o'rtasidagi, qat'iy uzilish 1054 yilda "cherkovlarning bo'linishi" bilan yakunlandi.

XI - XIII asrlarda Evropa va Sharq mamalkatlari o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalar kengaydi va mustaxkamlandi. Bunga ham salib yurishlari, ham Genuya, Piza, Venetsiya kabi italyan dengiz respublikalarining savdo faoliyati, hamda Vizantiyaning vositachilik roli imkoniyat yaratib berdi.

Vizantiya diplomatiyasi va unga usullari bo'yicha yaqin bo'lgan Sosoniylar Eroni diplomatiyasining an'analari Sharqda gullab yashnadi. g'arb mamlakatlari va Qurdoba xalifaligi o'rtasida o'rnatilgan ko'plab aloqalar orqali, salb yurishlari davomida bo'lib o'tgan to'qnashuvlar va muzokaralar orqali SHarqning ta'siri orqada qolgan va madaniyatsizroq bo'lgan g'arbga o'tardi. Frank tarixchilari Buyuk Karl va Bag'dod xalifasi Xorun ar-Rashid o'rtasida elchiliklar bilan o'zaro almashuvi, bir-biriga yuborgan tuxfalar haqida hikoyalar qilishadi. Biroq bu hikoyalarni to'g'rirog'i afsonalar qatoriga qo'shish lozim. SHarq tarixchilari, Abbosiylarning turli mamlakatlarga yuborgan ko'plab elchiliklarni ta'riflab, Buyuk Karl huzuriga yuborilgan elchiliklar haqida hech qanday ma'lumotlarni eslab o'tmaydilar va hattoki bunday hukmdorni bilmaydilar. Lekin Sharqdan Franklar davlatiga savdogarlar, ayniqsa yahudiylar tez-tez kelib turgan va o'zlari bilan noyob mollar olib kelgan. Bir kuni keltirilgan fil shunchalik katta shov-shuvga sbabchi bo'ldiki, frank solnomalarida uning vafot etgan yili qayd etilgan. Balki Sharq savdogarlarining ushbu tashriflari xalifa yuborgan elchiliklar to'g'risidagi afsonaga zamin yaratgandir.

Salib yurishlari davrida Kichik Osiyoda Rum Sultonligi nomi ostida yashagan saljuq turklari davlati XIII asr boshlariga kelib 10 ta amirlikka bo'linib ketdi. XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida yangi davlat tashkil bo'ldi. Unda ko'chmanchi o'g'uzlar etakchi rol o'ynadilar. Dastlabki vaqtlarda Erto'g'ul, o'g'uz qabilalarining raxbari bo'lib, Vizantiya imperiyasi bilan chegaradosh Sakaryo bo'yida kichik feodal mulkiga (beylikka) egalik qilardi. Erto'g'ulning o'g'li va taxt vorisi – Usmon (1282-1326) Vizantiyaga qarshi urush boshladi uning Kichik Osiyodagi mulklarining ko'pchiligini, shu jamladan, Brusu (yoki Bursu) shaharini bosib oldi. Brusu shaharini Usmon o'zining poytaxti qilib oldi. Vafotidan biroz burunroq Usmon Kichik Osiyodagi boshqa amirliklarni o'ziga itoat qildirdi.

Vizantiyaning zaiflashib qolganligidan va Bolqon yarim orolidagi boshqa davlatlarning parchalanib ketganligidan foydalanib, Usmon turklari XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, keyin esa Bolqon yarim orolda ham keng istilochilik harakatlarini boshladilar. Usmonning vorisi – Urxon 1331 yilda Nikey shahrini, keyin esa Vizantiyaning Kichik Osiyodagi boshqa barcha erlarini bosib olganidan so'ng, Evropada istilolar qilishga kirishdi. 1354 yili Urxon Dardanel bo'g'ozining Evropa qirg'og'idagi Gallipol shahrini bosib oldi. So'ngra turklar Frakiyaga kirib bordilar. Bu viloyat keyingi sulton, ya'ni Murod I zamonida (1359-1389) batamom zabt etildi. Murod I 1361 yilda Frakiyaning bosh shahri – Adrianopolni bosib oldi. 1371 yilda serblar, bolgarlar valaxlar va vengrlardan iborat koalitsiya (ittifoq) Murodga qarshilik ko'rsatishga urindi. Biroq ittifoqchilar Maritsa daryosi bo'yidagi jangda engildilar. Shundan so'ng Janubiy Serbiya sulton hokimiyati ostiga o'tdi. Vizantiya imperatori sultonga o'lpon to'lovchiga aylandi.

1389 yil 15 iyunda Kosovo maydonida (Janubiy Serbiya) serblar va ularning ittifoqchilari turklarga qarshi hal qiluvchi jangga kirdilar. Serblarning jasorati va Murod I-ning o'ldirilishiga qaramay, turklar g'alabaga erishdilar. Shundan so'ng Serbiyaning katta qismi Turkiyaga qo'shib olindi.

XV asrning 20-yillarida turklar yana qaddilarini rostlab oldilar. Sulton Murod II (1421-1451) 20-yillarning boshlarida istilolarni yana qaytadan boshladi. 1422 yilda u Konstantinopolni uch marta qamal qilsa-da, ammo uni qo'lga ololmadi. 1430 yilda Solun shahri olinib, uning barcha aholisi qullarga aylantirildi.

1444 yilda turklarga qarshi yangi salib yurishi uyushtirildi. Unda polyaklar, chexlar, vengerlar, nemislar, qisman fransuzlar va boshqa g'arbiy evropalik ritsarlar qatnashgan edi. Varna

yonidagi jangda (1444 yil 10 noyabr) ritsarlar tor-mor etildi. SHuning o'zi bilan Konstantinopolning halokati oldindan muqarrar qilib qo'yildi. Konstantinopol 1453 yil 29 mayda quladi. So'nggi Vizantiya imperatori Konstantin XI (1448-1453) edi. Sulton Murod II-ning taxt vorisi – sulton Muxammad (Mexmed II) (1451-1481) Konstantinopolni zabt etdi.

2. VIZANTIYANING YUSTINIAN DAVRIDAGI TASHQI SIYOSATI VA HARBIY YURISHLARI

G'arb tomonda Rim imperiyasini chegaralari tiklash bo'yicha buyuk rejasini, Yustinian Shimoliy Afrikadagi (Liviya) vandallar qirolligini bosib olishdan boshladi. Bunga halqaro ahvol va vandallar qirolligidagi ichki holat qulaylik yaratib berdi. Bu vaqtga kelib vizantiya hukmati 532 yilda Eron bilan "Abadiy tinchlik" to'g'risida bitim tuzib, Sharqdan bo'lgan havf-hatarni bartaraf qilgan edi. Bu Yustinianga yo'l ochib berdi. Uni rejalarini amalga oshishiga german qirolliklari o'rtasidagi kelishmovchiliklar ham yordam berdi. VI asrni 30-yillariga kelib vandallar ostgotlar bilan, ostgotlar franklar bilan, fraklar esa vestgotlar bilan dushmanlik qilishgan. Vizantiya diplomatiyasi turli yo'llar bilan bu nizolarni avj oldirgan. Ichki nizolar oqibatida varvar qirolliklari orasida Vandallar qirolligi eng kuchsizlangani edi. Shimoliy Afrikadagi yuz yillik xukmronligi oqibatida vandallar va alanlar o'zini avvalgi jangovar kuchini yo'qotishgan edi. Kachonlardir barcha O'rta dengiz mamlakatlarini ko'rquvda ushlab turgan vandallar floti, endi tanazzulga uchragan edi.

Shimoliy Afrikaga rim hukmdorligini haloskori sifatida kelib va birinchi vaqt mahalliy halqni ishonchidan foydalanib, vandallar rim zodogonlari, provoslav cherkovi va imperator er mulklarini konfiskatsiyasini o'tkazishdi. Vandal qirollari va ularni yaqin odamlar boy erlarni egallab olishgandi; oddiy vandal askarlari (taxminan 50 mingta) esa soliq to'lashdan ozod qilingan klerlar deb atalgan meros qoldirish huquqi bilan er maydonlari olishgan edi. Eski egalarga esa kam hosil erlar qolgandi, ular uchun ham davlat g'aznasiga baland soliqlar to'lash kerak edi. Ba'zi aslzoda va boy rimlik va liviyaliklarni vandallar o'ldirishdi yoki qulga aylantirishdi, boshqalari esa kochib keta oldi. Jonkuyar arianlardan bo'lgan vandallarni birinchi qirollari Geyzerix (428-477), Gunerix (477-484) va Gundamund (484-496) afrikalik cherkov ruhoniylarni beshavqat ta'qib qildilar.

Arian ruhoniylari esa, o'zining murosasiz diniy taqvodor fanatizmi tufayli mamlakatda diniy nizolar qo'zg'atib kelardi. Mahalliy cherkovlarni er va boshqa boyliklari arian ierarxiyasi va vandal zodogonlari tomonidan bosib olingan edi. Shimoliy Afrikada qolgan rim zodogonlari va provoslav ruhoniylar orasida bosqinchilarga qarshi g'azab kattayib borardi.

Shu bilan birga vandal jamiyatida chuqur mulkiy va ijtimoiy tabaqalarga ajralishlar sodir bo'lardi: zodogonlar o'z halqidan yanada uzoqlashib borardi. Qirol va uning drujinachilari ko'p hollarda o'zlarini qabiladosh askarlarini erlarini tortib olishardi. Boyib ketgan vandal zodogonlarini bir qismi rim urf-odatlarini va ularni hayot tarzini qabul qilishgandi. Sharqiy Rim imperiyasi bilan yaqinlashuvga yo'naltirilgan partiya ham paydo bo'lgandi. Agar Geyzerix ular bilan doim dushmanlik qilib, vandallarni floti Illirik, Gretsiya, Peloponnes va imperiyani boshqa viloyatlarini talashgan bo'lsa, Trazamund (499-523) esa har hil yo'llar bilan vizantiyalik imperator Anastasiy bilan do'stona aloqalar o'rnatishga uringan. Masalan u provoslav ruhoniylarni ta'kib qilishni to'htatib, o'z fuqarolarini zo'rlash o'rniga arianlikga o'tishini turli hil imtiyozlar va tuhfa berish orqali og'dirishga uringan. Qirol Gelderix (523-530) xukmdorligi vaqtida vandallarni siyosati rimliklar tomoniga yanada og'ish tusini oldi. Chamasi uni saroy ayonlari orasida "rim" partiyasiga oidlar ko'p bo'lgan. Ostgotlar davlati bilan aloqalarni uzilishi ro'y berdi. Gelderixni o'zi esa Yustinian bilan do'stlikni istardi. Mamlakatda din erkinligi o'rnatilgan. Vizantiya diplomatiyasi turli hil yo'llar bilan Gelderixni imperiyaga nisbatan tobelik g'olatiga olib kelishga intilgan edi. Rimliklarga qarshi bo'lgan vandal zodogonlari esa, qirolni

vandallar Shimoliy Afrikani mahalliy, mavretaniyalik (berber) qabilalar bilan bo'lgan urushlardagi mag'lubiyatlarda ayblashar edi. Oxirgilar esa, to'la mustaqillikga erishib, vandallarni harbiy kuchsizlanib qolganidan foydalangan holda Bizatseneda ularga qarshi qo'zg'olon qo'tarishdi. Harbiy muvaffaqiyatsizliklar esa, oddiy askarlar orasida tabaqalarga bo'linish o'sib borayotganligi sababli, vandallar armiyasini tanazzulga uchraganligi bilan bog'liq edi.

Shimoliy Afrikani aholisini vandallarga bo'lgan munosabati ham o'zgargan edi. Vandal zodogonlari ozod dehqonlarga nisbatan qaram qilish siyosatini olib bora boshladi. Provoslav diniga sodiq bo'lgan halq ommalari orasida ruhoniylarni arian-vandallarga qarshi va'z aytishlari muvaffaqiyatga ega bo'lgan. Mahalliy aholi va bosqinchi-vandallar orasida etnik nizolar ham mavjud bo'lgan. Yustinianni emissarlari esa turli-hil yo'llar bilan ularni gijgijlab kelishgan.

Rimga hayrihoh bo'lgan qirollar vaqtida saqlanib qolgan rim zodogolariga yana jon kirdi, provoslav ruhoniylar esa, diniy tinchlik bilan foydalanib, yana o'zlarini o'rinlarini mustahkamlay boshlashdi.

Rim zodogonlari va ruhoniylari Sharqdan betoqatlik bilan yordam kutishgan edi. Ular mahfiy ravishda vandallarga qarshi qo'zg'olon tayorlashgan.

Shimoliy Afrikada vizantiyaliklarni ittifoqdoshlari, Vizantiyani sharqiy viloyatlari bilan savdo aloqalar bilan bog'liq shu erli shaharlarning savdogar ahli ham edi.

530 yili kuchsiz Gilderix vandal zodogonlarini rimliklarga qarshi bo'lgan kuchlari tomonidan tahtdan og'darildi. Tahtni, Geyzerixni qirollar sulolasidan bo'lgan, uni qarindoshi Gelimer egalladi. Harbiy partiya tomonidan nomzodlikka qo'yilgan va armiyani yordamiga ega bo'lgan Gelemir o'tmishdoshini kattiq qo'llik bilan jazoladi. Gilderix va uning barcha qarindoshlari qo'lga olinib qamoqqa tiqilgan edi. Yustinian Gelimirdan darhol Gilderixni ozod qilishni talab qilib urushga tayorgarlik ko'rishni boshladi. 532 yilda Nika qo'zg'olonini bostirib, imperator fuqarolarini diqqatini mamlakat ichidagi og'ir holatdan o'zining keng bosqinchilik siyosati bilan bo'lmoqchi edi. Imperator g'alabalari orqali o'z obro'sini tiklab, buyuk sarkarda unvoniga sazovor bo'lmoqchi edi.

Biroq Shimoliy Afrikaga yurishni tayorlash vaqtida, imperator to'satdan Kapadokiyalik Ioanni o'zi boshchilik qilgan saroy ayonlarini qarama-qarshiligiga uchradi. Ularni birinchi o'rinda uzoq bo'lgan dengiz yurishini xavf-hatarlari qo'rqitar edi. G'aznachilik bilan bog'liq bo'lgan saroy amaldorlari, yurish talab qilishi mumkin bo'lgan katta harajatlardan bezovtalangan. Sarkardalar va askarlarni ulardan uzoq va noma'lum mamlakatda bo'ladigan urush qo'rquvga solardi; bundan tashqari ular imperiyaga forslarni hujum qilishlari ehtimolidan bozovta bo'lardi. Fors yurishidan kelib, hali tinchlikka to'yishga ulgurmagan askalar orasida yana xavfli yurishga borishga hohsh bo'lmagan. Yurishni muvaffaqiyatli tugagan tarzda ham, Sitsiliya va Italiya ostgotlar qo'lidan bo'lguncha qadar, vizantiya askarlari Shimoliy Afrikada o'zlarini hokimiyatini mustahkamlay olmaydi degan fikrlar ham bo'lgan.

Amaldorlar biroz vaqtga imperatorni kat'iyligiga zil soldi. Ammo bu vaqt, Vandal qirolligini zabt etilishida talab qilgan imperiyadagi kuchlar faollashdi. Imperator huzuriga sharqiy provoslav ruhoniylarini vakillari tashrif buyurdi. Ko'p miqdordagi afrikalik qochoqlar, rim zodogonlari va cherkov amaldorlari imperatordan qast olishni talab qilib jig'iga tegishardi. Yustinian chet ellik ittifoqdoshlari ham faollashdi. Tripolisda rim zodogoni Pudensiy vandallarga qarshi qo'zg'olon qo'tarib uni imperiya ihtiyoriga topshirdi. Sardiniyadagi, got bo'lgan, vandal noibi Goda imperator tomoniga o'tib, vizantiyaliklarga darhol orolni topshirish uchun askarlar jo'natishni so'ragan.

533 yilni bahorida urushga faol tayyorgarlik boshlandi. O'zini asli bosqinchilik rejalari berkitish maqsadida, Yustinian Liviyaga bo'lgan yurishga ozodlik uchun buyuk kurash ko'rinishini berishga harakat qilgan. Qo'shinga bosh sarkarda etib, bunga qadar fors yurishini muvaffaqiyatli

tamomlagan, buyuk sarkarda Velisariy tayinlandi. Uni qo'l ostiga to'plangan ko'shin 10 ming piyoda va 6 ming otliq askardan tashkil topgan edi. Bu turli qabila va tillarda gapiruvchi qo'shin edi. Piyodalar asosan Frakiya va Makedoniya aholisidan, otliqlar esa federat, gunn va gerul varvarlaridan tashkil topgan edi. Armiya etkazib qo'yilishi uchun 30 mingta dengischidan iborat 500 yuk tashish kemalari bilan ta'minlangan edi. Bundan tashqari Velisariyni ihtiyorida 92 tezyurar kemalar, dromonlardan iborat harbiy kemalar floti bor edi. Dromonlarda, bir vaqtni o'zida eshkak eshuvchi va askar bo'lgan 2 minga vizantiyaliklar bor edi.

533 yil 22 iyun kuni eskadra Konstantinopoldan suzib ketdi. Velisariy bilan birgalikda uzoq yurishga, keyinchalik Afrikani zabt etilishi bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni batafsil keltirib bergan, tarihchi Prkopiya ham jo'nab ketdi. Velisariy qattiy choralar bilan qo'shinda intizomni tartibga keltirdi. Pelopones yarim orolidagi Mefone bandargohida asosiy kuchlarga yani bir harbiy bo'lim ko'shildi. Yo'lni o'n oltinchi kuni vizantiya floti Sitsiliyani qirg'oqlariga kelib to'htadi. Velisariy Prokopiyni Sirakuzalarga borib vaziyatni o'rganib kelishni, va bu erni ho'jayinlari bo'lgan ostgotlar vizantiyaliklarni yurishlariga bo'lgan munosabatni bilib kelishni buyurdi. Prokopiya Velisariyga Karfagenga bo'lgan yo'l, vandallar vizantiyalik qo'shinni kelishini kutmayotganligi sababli, bo'sh ekanligini etkazdi. Velisariyni kelishidan biroz oldinroq, vandal qiroli Gelimer o'zining eng zo'r flotini (120 saralangan tezyurar kemalar) Sardiniyani Godadan qaytarib olish uchun jo'natib yuborgan edi. Gelimerni o'zi esa, bu vaqt Karfagenni tark etib qirg'oqdan uzoq bo'lgan Bizatseneda yashayotgan edi.

Ostgotlar esa vandallarga yordam bermoqchi emasdi. Ularni qirolichasi Amalasunta esa, hatto vizantiyaliklarga qo'shini uchun Sitsiliyada oziq-ovqat sotib olishiga ruhsat bergandi.

Velisariy shu zahotiyoq elkanlarni ko'tarishni buyurdi, va flot tez orada Shimoliy Afrika qirg'oqlariga etib keldi. 533 yilni sentyabr oyida qo'shin xech qanday to'siqqa uchramasdan Karfagendan 200 kilometr uzoqlikda tushdi. Mahalliy halqni o'z tomoniga og'dirish maqsadida, Velisariy o'z askarlarini talan-tarojlik uchun qattiq jazolagan. Vizantiyalik sarkarda yaqin orada joylashga Selekt shahriga kichik qo'shin jo'natdi. Askarlar shaharga aravalarda kirib kelayotgan aholi ichida aralashib, ayyyorlik bilan unga kirib olishdi. Selektada ularni imperiya tarafdorlari bo'lgan mahalliy episkop va aslzoda shaharliklar hursandchilik bilan kutib olishdi. Vizantiyalik qo'shinlar muvaffaqiyatli ravishda Karfagenga yaqinlashib borishardi.

Gelimer dushman qo'shinlarini kelib tushganidan habar topib, darhol Gilderix va uning yaqinlarini o'ldirishni buyuradi, o'zi esa engil otliqlar bilan to'qnashuvlarga uchramasdan Velisariy izidan borordi. Vandallar kuchlarini to'playotgan edi. Ikkala qo'shinlarni hal qiluvchi jangi 533 yil 13 sentyabr kuni, Karfagendan 13 kilometr uzoqlikda joylashgan Detsim joyida bo'lib o'tdi. Vandallar jangda mag'lub bo'lishdi. Vizantiya ko'shinlariga Karfagenga bo'lgan yo'l ochiq edi. Karfagen aholisi ular oldida eshiklarni ochishdi, va Mandrakiy ko'rfaziga kirishga to'sqinlik qilayotgan temir zanjirni ham echib tashlab, bandargohga vizantiya flotini kirishiga yo'l ochib berishdi. 533 yil 15 sentyabr kuni Velisariy jangsiz, tantanali ravishda Karfagenga kirib keldi. Egallangan shaharda to'la tartib-intizom surar etardi, savdo va ish faoliyati to'htatilmagandi, do'konlar bekilmagandi, askarlarni tunash uchun ro'yhatlar bo'yicha aholini uylariga joylashtirishardi, o'ziga oziq-oqatni esa ularga g'aznachilik tomonidan berilgan pullarga sotib olishar edi. Karfagenni egallab, Velisariy uni devorlarini harobalardan tikladi.

Gelimer poytaxtni behuda qaytarish maqsadida tezkor ravishda ko'shin to'plashga tushgan edi. Uni Velisariyga qarshi ittifoqchilar topish borasida barcha urinishlari muvaffaqiyatsizliklarga uchrar edi. Vestgot qiroli Tevd vandallar bilan ittifoq tuzishdan voz kechdi. Mavretaniya qabilalarini boshliqlari Oxiri g'olib tomoniga o'tish maqsadida, neytral holatni egallashib urushni Oxirini kutishyotgan edi. Gelimerga yordamga faqat ayrim mavrusiylar va Godani o'ldirib Sardiniyani egallay olgan uni ukasi Zazon kelgan edilar. Gelimerni Velisariy ko'shinidagi gunnlar boshliqlarini

boy sovg'a va va'dalar bilan o'z tomoniga og'dirib olishga bo'lgan harakatlari ham muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Gelimerni vizantiyaliklarga qarshi karfagenliklarni qo'zg'olon ko'tarishga bo'lgan umidi ham ro'yobga chiqmadi.

Vandallar va vizantiyaliklar o'rtasidagi ikkinchi jang, 533 yilni dekabr oyini o'rtalarida Trikamar yonida bo'lib o'tdi. Vizantiyalik sarkarda Ioann boshchilik qilayotgan otliq ko'shin tezqor hujum bilan Zazon bochiligidagi vandallar qo'shinini tor-mor qilishga sazovor bo'ldi. Zazonni o'zi esa jang vaqtida halok bo'ldi. Gelimer uni vafoti haqida habar topib, ukasini dafn qilish uchun qushinini tark etdi. Bu haqidagi habar vandallar orasida tarqalganidan so'ng, ular qochishga tushdilar. Gelimerni qo'shini to'la tor-mor qilingan edi. Vandallarni hotinlari, bolalari va mol-mulki joylashgan qararg'oh g'oliblar qo'liga tushdi. Velisariyni askarlari bir kecha ichida katta boylik va ko'plab qullarni egasiga aylanishdi. Gelimerni oila va boyliklari ham vizantiyaliklarni qo'liga tushgandi. Besh kunu besh kecha vizantiyalik qo'shinlar Gelimerni ta'qib qilib keldi. U ta'qibchilardan qochib, Numidiya chegarasidagi do'stona mavrusiylar qabilasida o'ziga boshpona topdi. Velisariy, Papua tog'ida joylashgan Gelimer va uni drujinachilarini qurshab olib, ularga oziq-ovqat etkazib berish imkonidan kesib ko'yishni buyurdi, o'zi esa qolgan qo'shini bilan Karfagenga qaytib ketdi.

Bundan so'ng u vandallarni boshqa erlarini zab etishni davom etdi. Moxir sarkarda Kirill qo'shin bilan Sardiniya oroliga yuborildi. Uni qiyinchiliksiz zabt etib, Kirill tez orada shu tarzda Korsikani ham egallab oldi. Keyin, muhim strategik puntlar bo'lgan Mavretaniyadagi Sezariya (Kesariya), Gibraltardagi Septem qal'asi, Balear orollari bo'lgan Mayorka va Minorkalar vizantiyaliklarni ko'liga o'tdi. Vizantiyaliklar Tripolis va boshqa muhim mudofa joylardagi o'z hokimiyatini mustahkamlashdi.

534 yilni mart oyida Gelimer o'zini g'oliblar ihtiyoriga topshirishga qaror qildi. Taslim bo'lish shartlari sharaflidir: Gelimer, uni qarindoshlari va yaqin ayonlariga shahsiy havfsizlik kafillangandi; unga YUstinianni saroyiga etib kelganidan so'ng hurmat ko'rsatilib, Vizantiyada u hech narsaga muhtoj bo'lmasdan yashash va'da qilingandi. Gelimer va vandal qirollarini boyliklarini o'zi bilan olib, Velisariy darhol Karfagendan Konstantinopolga suzib ketdi. Velisariy sharafiga Vizantiyani poytaxtida unga tantanali kutib olish marasimi nishonlandi.

Imperator va uning rafiqasi zodogon vandallarga iltifot ko'rsatishdi. Gelimerga esa Kichik Osiyodagi Galatiyada erlar tuhfa etildi, va u bu erda hususiy shahs huquqlari asosida yashay boshladi. Asirga olingan vandal jangchilarini esa Shimoliy Afrikadan olib ketib, vizantiya armiyasini safiga qushishdi, so'ngra uzoq sharqiy viloyatlarda joylashtirib forslarga qarshi urushga jo'natib yuborishdi.

Butun Shimoliy Afrika uni oyoqlari ostidaligiga ishonib yuborib, vizantiya imperatori o'ziga "vandallar" va "afrikalik" unvonini qo'shib oldi, va Velisariyni chaqirib olib, hali tinchlantirilib bo'linmagan viloyatlarda qo'shinlar sonini kamaytirib yubordi. 534 yili, Gelimer ustidan qozolgan g'alabadan so'ng shu zahotiyoyq, Yustinian zabt etilgan erlarni tuzilishi to'g'risida Novella chiqardi. Bu erda keng vakolatlarga ega bo'lgan, Afrikani pretoriysini prefektorini boshchiligi asosida pretorian prefekturasi tashkil qilingan edi. Butun Shimoliy Afrika etti viloyatga bo'lingan edi: Zevgitana, Karfagen, Bizatsena, Tripoli, Numidiya, Mavretaniya va Sardiniya. To'rtasini boshchiligida rektorlar, qolgan uchtasinikida esa prezidlar turgandi. Harbiy ma'muriyat fuqarolik ma'muriyatdan ajratilib qo'yilgan edi. Okkupatsion qo'shinlar ichki viloyatlarda joylashtirilgan komitatlar korpusi, va chegara qo'shinlari bo'lgan limitanlardan tashkil topgan edi. Barcha fuqarolar ma'muriyatini amaldorlari, sarkarda va askarlar viloyatda yig'ilgan soliqlar hisobidan to'lanadigan davlat maoshi olishardi. SHimoliy Afrikada vandallar tomonidan bekor qilingan rim soliq tartibi to'laligicha qayta tiklangan edi. Sardiniya va Korsika aholisi ham o'lpon to'lashga tortilgandi.

Yustinianni Shimoliy Afrikadagi agrar siyosatini asosiy maqsadlaridan biri bu yirik rim er egaligini tiklash edi. Vandallar hukmdorligi vaqtida egalaridan tortib olingan erlar, avvalgi ho'jayinlari

bo'lgan – imperator fiskiga, provoslav cherkovga, rim posessorlarini avlodlariga va romanlashgan afrikalik zodogonlarga qaytib berilgan. Vandallardan musodara qilingan erlarni asosiy qismini YUstinian o'ziniki qilib oldi yoki fiska topshirdi. Cherkov mulklarini musodara qilish taqiqlangan. Karfagen cherkovlariga metropoliya cherkovlari ega bo'lgan barcha huquqlar taqdim qilingandi.

O'zga dinga mansub – arian, donatist, yahudiy va butparastlar ta'qib qilinardi. Vizantiya bosqini afrikalik provoslav ruhoniylar tomonidan g'oyat zavk bilan kutib olinganligi bekorga emas.

Vandallar hukmronligi vaqtida o'z ho'jayinlarida qochib ozodlikda yashayotgan qul va kolonlar, o'zining avvalgi egalarini merosho'rlariga qaytarilardi. Vizantiyalik va vandallarni urushi vaqtida xolis o'rinni egallagan mavrusiy qabilalarini ko'plab boshliqlari tez orada bosqinchilarni qattiq qo'llikliklarini o'zida sezdi. Gelimerni tor-mor qilgandan so'ng, vizantiyaliklar ochiqchasiga mahalliy qabilalarni imperiya hokimiyatiga bo'ysundirishga kirishdilar.

Shimoliy Afrikada quldorlik tartibini qayta tiklashgan karatilgan vizantiya hukmati olib borayotgan siyosat, bu erlarni halq ommalarini noroziliklarini kelib chiqardi. Shimoliy Afrika halqini turli tabaqalariga mansub qatlamlari qatnashayotgan, bosqinchilarga qarshi keng harakati boshlandi. Birinchi bo'lib mavrusiylar qurol qo'tarishdi. Bu qabilalar hali ibtidoiy jamoa tuzumini buzilishi jarayonida edilar, va ularni harbiy tuzilishi halq qo'ngilliklari lashkarlari hususiyatlarini (ommaviylik va harakatchanlikni) saqlab qolgan bo'lib, uni vizantiyaliklarga jiddiy raqib qilardi.

Qo'zg'olon 534 yilda, Velisariyni Vizantiyaga junab ketganidan so'ng tez orada Numediya va Bizatseneda boshlandi. Mavrusiylar bu uzoqda joylashgan viloyatlarini asosiy qismini hona-vayron qilishdi. Bu erda ko'p bo'lmagan va bundan tashqari to'satdan hujumga uchragan vizantiyalik ko'shinlar mag'lub bo'lib, to'laligicha yo'q qilib tashlangan edi. Mavrusiylarga qarshi ko'p sonli qo'shin bilan birgalikda jasur va tajribali haram og'asi bo'lgan sarkarda Solomon jo'natildi. Urush shiddatli va qonli bo'ldi. Birinchi jang Mamma viloyatida sodir bo'ldi. Mavrusiylar son jihatdan vizantiyaliklardan ko'p bo'lishiga qaramasdan, qurol jihatdan ulraga yutkazardi. Vizantiyalik ko'shinlar Karfagenga boy o'lja bilan qaytishdi. Biroq, mavrusiylar vizantiyaliklarga bo'y sunishni istamay, shu zahotiyoki butun halq bilab qo'tarilib yana Bizatsenani hona-vayron qilishni boshladilar. Ikkinchi katta jang Burgaon tog'i yonida bo'lib o'tdi. Solomon yana g'alaba qozandi. G'oliblar ularni qattiq jazolashdi. Burgaon tog'i yonidagi g'alabadan so'ng vizantiyalik askarlar "shu miqdorda qo'p asir ayol va bolalar olgandiki, mavrusiylardan bo'lgan bolani bitta qo'yni narhiga sotib olish mumkin edi".

Mag'lub bo'lgan mavrusiylarni qolgan kuchlari Numediyaning uzoq joyiga chekinib, Avres tog'larida najot topishdi. Mavrusiylar harakati vaqtinchalik jimib qoldi. Lekin tanaffus vizantiya hukmati uchun qisqa bo'ldi.

Kegusi 536 yilning boshidayok Shimoliy Afrikada imperiya uchun havfli bo'lgan vizantiya armiyasi va halq ommalarining qo'zg'oloni boshlandi. Uning asosiy sababidan biri bu - Shimoliy Afrikada er uchun boshlangan keskin kurash edi. Vizantiya askarlari bosib olingan viloyatlarda er olishga da'vogar edilar. Ular bu erda mahkam o'rnashib olishga harakat kilishgan, ko'pchiligi urushda halok bo'lgan vandallarni bevalari, qizlari va singillariga uylanib olib o'zlarini ularni erlarini qonuniy ho'jayini deb hisoblashgan. Bu orada Konstantinopol vandallarni erlarini imperator yoki g'azna erlari deb hisoblab, ularni provoslav cherkovlar yoki rimlik er egalarini merosho'rlariga qaytarib bergan. Vandallarni erlarini g'aznaga tortib qo'yish bo'yicha hatti-harakatlar armiyani g'azabini keltirardi. Er uchun bo'lgan kurash vaqtincha oddiy askarlar, qomondonni gvardiyasidan imtiyozlarga ega bo'lgan askarlar va ko'plab sarkardalarni birlashtirgandi. Oddiy askarlarni noroziliklari yana hukmat oyliklarini to'lashni cho'zganligi, komandirlari esa turli-hil yo'llar bilan jabr qilganliklari bilan kuchayasdi.

Qo'zg'olonni asosiy sabablaridan yana biri - bu armiya va butun mamlakatda arian va provoslavlar o'rtasidagi diniy nizolarni kuchayishi edi. Prokopiyni so'zlariga qaraganda, Shimoliy Afrikadagi vizantiya qo'shinlarida arianlikni e'tiqod qiluvchi minga yaqin varvar askarlari bor edi (ular orasida ayniqsa gerullar ko'p bo'lgan). Yustinianini dinni ta'qib qilishi qo'zg'olon qo'targan askarlar va mahalliy arian-aholisini yaqinlashishiga asos bo'lgandi. Qo'zg'olonda muhim o'rinni, armiyasi Velisariy tomonidan mag'lub qilinganidan so'ng omon qolgan vandallar ham egallagan.

536 yilning bahorida Karfagenda Solomonga qarshi fitni tuzildi. Fitnachilar uni o'ldirishmoqchi edi, lekin qotillik amalga oshmasdan, fitnachilarni bir qismi Karfagendan qochib ketishdi. Solomon yon berishga qaror qildi. Ammo oradan to'rt kun o'tgach karfagen garnizonini askarlari, ularni karfagenlik kambag'allar ko'laydi degan fikrda ippodromda ochiqchasiga qo'zg'olon qo'tarishdi. O'zining boshlig'i qilib ular qo'zga tashlangan sarkarda Kappadokiyaalik Feodorni saylashdi. Saroyni hujum bilan egallab, qo'zg'olonchilar Solomonni barcha tarafdorlarini o'ldira boshlashdi, shuningdek boylar va zodogonlarni uylarini vayron qildilar. Biroq, armiyani mavkei baland qismining qiziqishlarini ifoda qilgan, va qo'zg'olonchilarga faqat vaqtinchagina qo'shib olgan Kappadokiyaalik Feodor, hukmat bilan aloqalarni to'la uzishga hohlamay, Solomon, uning ayoni Martin va tarixchi Prokopiyni kechasi yashirincha qochib, kemaga o'tirib Karfagendan ketishiga yordam berdi. Martin qo'zg'olonchi askarlarga qarshi kurash olib borish maqsadida Numidiyaga qo'shin to'plaganini jo'nab ketdi. Solomon va Prokopiya esa, Yustinian tomonidan Sitsiliyaga ostgotlarga qarshi kurash olib borish uchun jo'natilgan Velisariy oldiga yordam so'rab kelishdi.

Solomonni qochib ketishidan so'ng qo'zg'olonchilarni qarorgohida parchalanish yuz berdi. Shaharda hokimiyatni Kappadokiyaalik Feodor boshchiligidagi kimsalar egallab olishdi. Karfagendan ketgan jangchilar, Martinni tansoqchisi bo'lgan Stotzani saylashdilar. Stotzani qo'l ostiga 8 mingta yahshi qurollangan vizantiyalik askarlar va mingta vandal jangchilari to'plangan edi. Prokopiyni so'zlariga qaraganda ularga ko'p qullar ham qo'shilgandi. Qullarni ishtiroki harakatga ijtimoiy tus berdi.

Kappadokiyaalik Feodor tarafdorlari shaharni imperator uchun saqlab qolishga harakat qilishib, Karfagenda berkinib olishdi. Shunda Stotza uni qamal qilishni boshladi. Shimoliy Afrikaga Sitsiliadan Velisariy etib kelganida, u shaharni egallashga yaqin edi. Chamasi u, qo'zg'olonchilar orasidagi kelishmovchiliklardan foydalanib va Kappadokiyaalik Feodorni yordamiga ishanib, Stotzani kuchlaridan ko'p askarlarni ajratib olishga erishdi. Velisariyni etib kelgandan so'ng tez orada uni ihtiyorida ikki mingta jangchi bor edi. Bundan so'ng Stotza chekindi, lekin qurolini tashlamadi.

Velisariy ko'shini va qo'zg'olonchilarni armiyasi o'rtasidagi hal qiluvchi jang, 536 yili Membres shahri yaqinidagi, Bagrada daryosi qirg'og'ida bo'lib o'tdi. G'alaba janglarda tajribasi ko'prok sarkarda bo'lgan Velisariyga nasib qildi. Velisariy Stotzani ta'qib qilishga jur'at qilolmay Karfagenga qaytib keldi. Bu erda uni shoshilinch ravishda Afrikani tark etishga majbur qilgan, Sitsiliyadagi o'z armisidagi askarlar qo'zg'oloni to'g'risida xavotirli xabar kutardi. Lekin Stotzani jangchilarini qo'zg'oloni davom etardi. Qo'zg'olonchilar Numidiyada yorqin g'alabalar qozonishga erishishdi. Stotza tarafiga Numidiya hoqimi Markellanning butun boshli qo'shini o'tib ketdi. Stotzani g'alabalari Yustinianini shunday tashvishga solgan ediki, u hatto Shimoliy Afrikaga keng vakolatlar berib o'zini jiyanini patrikiy Germani jo'natgandi. German darhol imperiyaga sodiq qolgan askarlarni ro'yhatini tuzdi. Ma'lum bo'lishicha Karfagen va boshqa shaharlarda qo'shinni faqatgina uchdan bir qismi imperatorga sodiq qolishgan, qolganlari esa Stotza tarafiga o'tib ketgan. Shoshilinch usullar bilan German askarlarni bir qismini o'zining armiyasiga qaytarishga erishdi: ularga barcha maoshlari to'landi (hatto xukmatga qarshi urishayotgan vaqti uchun), imperator bayroqlari ostiga qaytib kelayotganlarni barchasiga to'la amnistiya va qimmatli sovg'alar berildi. Bunga qaramasda Stotza

kurashni davom etardi. U o'z tomoniga ba'zi mavrusiy qabilalarini jalb qilishga erishdi. Stotza hatto Karfagenga yurishga harakat qildi, lekin mag'lubiyatga uchradi.

537 yili Numidiyadagi Skale Veteres joyi yaqinida qo'zg'olonchilar armiyasi German qo'shinlari bilan uchrashishdi. Kuchlarni ustunligi German tomonida bo'lib u jangda zafar qozondi. Bunda, kutilmaganda German tomoniga o'tib olgan ba'zi mavrusiy qabila boshliqlarini o'rni muhim rol o'ynadi. Stotza Mavretaniyada yashirinishga majbur bo'ldi. Lekin Afrikadagi vizantiya qo'shinlari orasidagi aynish to'htamayotgan edi. 537-538 yilning qishida German tomonidan qiyinchilik bilan bostirilgan Maksimian boshchiligidagi karfagen garnizoni qo'zg'olon qo'tardi. Tez orada German Afrikadan Yustinian tomonidan ortga chaqirib olinib, uni batamom tinchlantirilishi yana haram og'asi Solomonga topshirildi.

Tartib o'rnatish maqsadida Solomon armiyani qattiq qo'llik bilan armiyani tozalashga tushdi. U viloyatlardan barcha vandallarni ko'chirib chiqarib, butun mamlakat bo'ylab harbiy istehkomlar qurishni boshladi, va rim qonunlarini qat'iy rioya qilinishlarini talab qildi. 536 yili Solomon Avresa tog'laridagi mavrusiylarni mag'lubiyatga uchratib, Birinchi Mavretaniyadagi Zaba viloyatini egallab, Afrikada vaqtinchalik tinchlik o'rnatishga erishdi. Ammo bu tinchlik faqatgina to'rt yil davom etdi. 543 yilda mavrusiylarga qarshi harbiy harakatlar yana boshlandi. 544 yili Tebesta yaqinidagi Silliy joyida vizantiyalik qo'shin Tripoli va Bizatsenini mavrusiylari tomonidan er bilan yakson qilindi, Afrikani noibi bo'lgan Solomonni o'zi esa halok bo'ldi.

Kelgusi 545 yilning bahorida Stotza ikkinchi bor qo'zg'olon qo'tardi. Mavretaniyadan kelib, Bizatsenada u Solomonni davomchisi bo'lgan Sergiyga qarshi yana qo'zg'olon qo'tardi. Stotzaga mavrusiy va mahalliy aholi yordam berdilar. Isyonchilar Bizatsenani noibi bo'lgan Imeriyni qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, uni o'zini esa asirga olishdi. Imeriyni askarlari Stotzani qo'shinlariga qo'shilishdi, keyin yirik dengiz bo'yi shahri bo'lgan Gadrumentomni egallashdilar. Isyonchilar aslida butun Bizatsenani ho'jayinlariga aylanishdi. Stotza yana katta hokimiyatga erishdi, va ko'pchilik vizantiyalik askarlar yana unga qo'shilishga shoshilishar edi.

Bunday keskin paytda Yustinian Shimoliy Afrikaga senator Areovindni jo'natib hatolikka yo'l qo'ydi. Harbiy ishlarda xech vaqoni tushinmagan bo'lib, u Afrikani qutkarib qolishga qodir sarkardaga o'hshamasdi. Imperator o'z hatosini, provinsiyadagi hokimiyatni Sergiy va Areovind o'rtalarida bo'lib berib yanada og'irlashtirdi: birinchisiga u isyonchilar bilan kurashni Numidiyada, ikkinchisiga esa Bizatsenada olib borishni buyurdi. Tez orada ikkala hoqim o'rtasida, isyonchilarga ma'kul kelgan, doimiy nizolar keltirib chiqqan dushmanlik paydo bo'ldi. Sergiy ikkala armiyani harakatlarini kelishib Areovindga yordam berishni hoxlamasdi. 545 yilda Stotzani qo'shinlari Zavgitana viloyatidagi, Sikka Veneriya shahri oldidagi, Tatsea joyida vizantiyalik qo'shinlarni to'laligicha mag'lub etdi. Biroq isyonchilar bu jangda, ular uchun kattiq zarba bo'lgan, jasur sarkardasidan ayrilishdi. Stotzani o'rnini, vizantiyani hukmdorligidan norozi bo'lgan barcha kuchlarni yana birlashtira olgan Ioan ismlik kimsa egalladi.

Hokimlar orasidagi nizolar faqat isyonchilar foydasiga qo'l tushyotganini anglab etgan Yustinian, nihoyat Sergiyni qaytarib, Afrikadagi barcha hokimiyatni Areovindga topshirdi. Lekin uning yakkahokimligi provinsiyaga xukmat istagan tinchlikni keltira olmadi. Sergiy jo'nab ketgandan ikki oy o'tishi bilanoq u er yana fuqarolar urushiga duchyor bo'ldi.

Mavrusiylar qo'shini isyonchilar bilan birlashib Karfashen tomon yo'l oldi. Havf bevosita Afrika hoqimini qarorgohi ustida paydo bo'ldi. Areovindni og'ir vaziyatga tushib qolganligidan vizantiya armiyasini sarkardalaridan biri bo'lgan tavakkalchi va shuhratparast Gontarpis foydalanib qoldi. U o'z oldiga, imperiyadan mustaqil bo'lgan, Afrika qirolligining tojini boshiga ko'yishni maqsad qilib olgan edi. Areovindga qarshi kurashda mavrusiylar qo'shinidan foydalanishni istagan Gontarpis, mahfiy ravishda qabila boshliqlarini biri bilan muzokara olib borishga kirishdi. U qabila

boshlig'iga Bizatsennani topshirishni, Areovindni boyliklarini yarmini berib keyinchalik yordamchi qo'shin tarikasida 1500 askar jo'natishga va'da berdi. O'ziga esa Gontarpis hozircha Karfagen, boshqa viloyatlar va qirol unvonini qoldirmoqchi edi. Kelishuv tuzildi, ammo ikkala tomonham uni bajarishga uncha shoshilmasdilar. Bu orada esa, Areovind o'z tomoniga mavrusiy qabila boshliqlaridan boshqa birini og'dirib olib, o'z rakiblari orasida nizo kelib chiqishiga erishdi. Unda Gontaris, g'aznachilik tomonidan kechiktirilayotgan maoshini to'lab bershga va'da berib o'z tomoniga og'dirib olgan karfagen garnizonini askarlarini bir qismi yordamida, Karfagenda ochiqchasiga dalat to'ntarish sodir etdi. Karfagenni devorlari va rovvoti oldilarida qonli to'qnashuv bo'lib o'tdi, unda Gontaris g'olib chiqdi.

Areovind o'z oilasi bilan qo'rqanidan karfagen cherkovlarini birida berkinib oldi. Poytaxtda hokimiyatni egallab olib, Gontaris o'z raqibi bilan muzokoralar olib boshladi. Yolg'on va'dalar bilan Areovindni cherkovdan chiqarib olib, Gontaris uni makkorlik bilan o'ldirib yubordi. Gontaris Areovindni boyliklaridan vos kecholmay, mavrusiy qabila boshlig'iga bergan va'dasini ustidan chiqmadi. Mavrusiylar Gontarisga yordam berishdan bosh tortib vizantiya hukmati tomniga o'tib ketishdi. Yustinianni noibini o'limi isyonchi askarlar tomonidan hursanchilik bilan kutib olinib, ular uzurpatorga umumiy dushman bilan kurashda yordam berishga tayyyor edi. Ioanni 500 vizaniyatlik, 80 gunn boshqalari esa vandal bo'lgan jami minga yaqin askarlari Gontaris tomniga o'tib, Karfagenga kiritilgan edi. Ularni yordamiga muhtoj bo'lib, Gontaris sirayam halq harakatini kullashga intilmagan edi. U vizantiya armiyasini yuqori tabaqalarini istaklarini himoya qilib, oddiy askarlari bilan bog'liq emasdi. Hokimiyatni egallab, Gontaris shahsiy dushmanlari boshiga juda og'ir kunlar soldi.

Gontarisni shuhratparast g'oyalariga amalga oshmaslik nasib qilgan edi. Uni hukmdorligi faqat 36 kun davom etgandi. 546 yilning mart oyida u vizantiya hukmatini foydasiga amlaga oshirilgan fitna oqibatida o'ldirildi. Bu fitnaga Arshakidlar arman sulolasidan bo'lgan zodogon Artaban boshchilik qildi; uni vizantiya armiyasini yuqori martabali ofitserlari qo'llab-quvvatlashdi. Artaban Gontarisni barcha tarafdorlarini beshavqat jazoladi, ayniqsa vandallar va Ioanni isyonchi askarlari bilan. Ioann esa qo'lga olinib, Konstantinopolga jo'natib yuborildi, u erda uni qatl etishdi. Tez orada Artaban Afrikani tark etdi.

Imperiya bo'ysunmas viloyatni to'la tinchlantirish uchun yana ikki yil zarur bo'ldi. 548 yili Afrika tamomila Yustinianni hokimiyati ostiga qaytarildi.

Bosib olingan erlar Tripoli, Bizatsena, Prokonsulariy, Numidiya va Mavretaniyani bir qismni o'z tarkibiga olar edi. Imperiyaga shuningdek Sardiniya, Korsiga va Balear orollari o'tkandi. Lekin G'arbiy Afrika butunlicha, ba'zi bir qirg'oqbo'yi viloyatlardan tashqari, mustaqil bo'lib qolgan edi. Mavretan qabilalarini tarqoqligi, harakat qatnashuvchilarini ijtimoiy tartibini rang-barangligi, va isyonchilarda yahshi tartib-intizom bo'lmaganligi sabab vizantiyani qurolini g'alabaga erishgan deb hisoblasa bo'ladi.

534 yilda Shimoliy Afrikadagi vandallar qirolligini zabt etilishi kelgusida vizantiya qo'shinlari tomonidan Italiyani bosib olish bo'yicha tayorgarlik edi. Vandallar bilan urush vaqtida, imperiya turli hil yo'llar bilan Ostgot qirolligini bu kurashda holis o'rinda qolishligi uchun harakat qilar edi. Biroq vandallar ustidan g'alaba qozonilganidan so'ng, shu zahotiyoq vizantiya hukmatini ko'zi Italiyaga tushdi. Shimoliy Afrikani bosib olinishi vizantiya qo'shinlarini janub tomondan bo'lgan orqasini berkitib turardi. Bundan tashqari bu engilmas hisoblangan varvarlar virolligini qanday qilib qulab tushganini qo'rsatdi. Bu esa Italiyadagi imperiya tarafdorlarini ruhlantirardi.

VI asrning 30-yillarida Vandallar davlati qabi Teodorixni qirolligi ham ichki nizolar tufayli kuchsizlangan edi. 535 yil 30 aprel kuni rimliklar bilan tinchlik siyosati olib borish tarafdori bo'lgan ostgotlar qirolichasi Amalasunta, uni raqibi bo'lgan Teodat tarafdorlari tomonidan o'ldirilgan edi.

Qirolichani o'limi got partiyasini imperiya bilan tinchlik tarafdori bo'lganlar ustidan g'alabasini anglatardi.

Teodot tomonidan qonuniy qirolichani o'ldirilishi Yustiniani Ostgotlar qirolligini ichki ishlariga aralashishga bahona bo'ldi. 535 yilni bahorida ikki huqumdor o'rtasidagi aloqlar uzildi.

Urushni asli sababi esa, Yustiniani G'arb tomonda imperiyani oldingi qudratini tiklash bo'yicha rejalari edi. Prvoslavlar va arian-gotlar o'rtasidagi diniy nizolar ham muhim o'rin egallagandi. Italiyani bosib olinishi nafaqat Vizantiya imperiyasini obo'sini qo'tarish kerak edi, balki imperiya ehtiyoj sezayotgan katta boyliklar va iqtisodiy manbalar ham berishi kutilayotgandi.

Ostgot qirolligini zabt etish bo'yicha harakatlar 535 yilda boshlandi. Urushni boshlanishini tezlashishga Italiyada boshlangan qo'zg'olonlar ham sabab bo'ldi. Bu urush vaqtida g'alaba torozisi ikkala tomonga ham o'zgarib turardi. Boshida vizantiyaliklar tomonidan Sitsiliya yarim oroli uchun kurash boshlandi. Sitsiliyani bosib olinishi Ostgot qirolligini asosiy g'alla omboridan ayridi. Vizantiyaliklar Italiyaga xujum uyushtirish uchun juda qulay operativ bazani qo'lga qiritishgan edi. 536 yilda Solna yaqinligi Dolmatsiyda vizantiyalik sarkarda Mund gotlardan mag'lubiyatga uchradi. Bu ostgotlar xukmatini ruhlatri, bundan tashqari Shimoliy Afrikada Stotza tomonidan qo'tarilgan qo'zg'olon ularni g'alabaga qozonishiga umid tug'dirar edi.

536 yilning yozida vizantiyalik sarkarda Konstanta ostgotlardan Dalmatsiyani qaytarib olishag erishdi, Velisariy esa Shimoliy Afrikadagi qo'zg'olonni bostirib Sitsiliyaga qaytib keldi. Tez orada u Reginga (hozirgi Redjio di Kalabriya) suzib keldi. Janubiy Italiya aholisi vizantiyaliklarni xaloskorlardek kutib olishdi. Qo'shinlar jangsiz Brutiy bilan Lukaniydan o'tib Kampaniyagacha etib kelishdi. Bu erda ular yigirma kunli kamaldan so'ng Janubiy Italiyaning eng yirik markazi bo'lgan Neapol shahrini egallashdi.

536 yilning dekabr oyida Velisariy Rimni egallashga erishdi. Vizantiyaliklar bundan tashqari Janubiy va O'rta Italiyaning muhim shaharlarini egallashga sozovor bo'lishdi. O'rta Italiyada ular Narniya (hozirgi Narni), Spoletsiy (hozirgi Spoleto) va Peruziya (hozirgi (Perudja) shaharlarini bosib olishdi. 537 yilni bahorida ostgotlarning katta qo'shini Rimni kurshab olishdi, lekin o'n to'rt oylik qurshovdan so'ng ular uni egallay olmay 538 yili qamalni olib tashlashga majbur bo'lishdi. Ostgotlarni qarama qarshiligi yana ikki yil davom etdi, bunga Velisariy va unga 7-mingli qo'shin bilan yordamga kelgan haram og'asi Narses o'rtasidagi nizolar sabab bo'lgandi. 539 yili Yustinian Narsesni Italiyadan chaqirib olib urushni olib borish huquqini yana Velisariyga topshirishga majbur bo'ldi. Ostgotlar qirolligini to'la bosib olinishi 555 yilda yakunlandi.

Ostgotlarni qirolligini qulashidan so'ng navbat Ispaniyadagi vestgotlarni Toledlar qirolligiga ham etib kelgan edi. Pireney yarim orolini boyliklari Vizantiyani anchadan buyon o'ziga rom qilib kelar edi. Ispaniya boy va gullab-yashnagan davlat sifatida mashhur edi. VI asrda u Sharq mamlakatlari bilan qizg'in ravishda savdo aloqalari olib borardi. Ispaniya va Janubiy Galiyadagi kema bandargohlaridan rangli metall, tuz, sharob, sirka, asal va qullar olib ketilardi.

Vestgotlar qiorlligidagi ichki holat Yustiniani bosqinchilik rejalarini amalga oshishiga ko'maklashardi. Quldorlik tuzimini tanazzuli va feodal tuzimga o'tish jarayonini boshlanishi mamlakatda barcha ijtimoiy nizolarni keskinlashuviga olib keldi. Bundan tashqari doimiy ichki nizolar va taht uchun kurash malakatni holatini og'irlashtirardi. Bularga chidamagan rim-ispan zodogonlari va ruhoniylar boshchiligida vestgotlarga qarshi qo'zg'olon qo'tarilib, ular Yustiniandan yordam so'rashdi.

554 yilda, hali Italiyaga qarshi yurish tug'amay turib, Yustinian vestgogtlarni Toledlar qirolligini zab etish uchun qo'shinlar yubordi. Vizantiya floti va qo'shinlari ustidan boshliq etib qarib qolgan rim patrikiyi Petr Marsellin Feliks Liberiy qo'yilgan edi. Qiska muddat ichida u bir nechta muhim galabalrga erishdi. Bu urush Vestgot davlatining qiroli Atanagild va Vizantiya o'rtasida aniq

chegalalarni belgilagan tinchlik sulhi tuzilishi bilan yaqunlandi, Vizantiyaga Ispaniyadagi Betika viloyati o'tdi.

VI asrda Vizantiya imperiyasini Sharqda bo'lgan tashqi siyosiy ahvoli G'arb tomondagi qabi muvaffaqiyatli kechmayotgan edi. Bu erda u doim qudratli raqib bo'lgan, ba'zida ittifoqchi, lekin ko'pincha dushmani hisoblangan sosoniylar Eroni bilan to'qnashib kelardi. VI asrda sosoniylar Eroni hali katta va kuchlik davlat bo'lgan. Uning erlariga hozirgi Eron va Avg'oniston, Iroq, Albaniyani Kavkaz qismi, va Armeniya bilan Gruziyani katta qismi kirgan. Eronni rang-barang bo'lgan aholisi, qisman o'troq, qisman ko'chmanchi hayot kechirib, asosan eron tizimiga mansub tillarda gaplashishgan. Eronni markaziy qismida asosiy o'rinni forslar egallashgan edi. Mesopotamiyada ko'plab suriyaliklar, arablar, yahudiylar yashab somiy tillarda gaplashar edilar. VI asrda Eronda quldorlik tuzumini parchalanishi sodir bo'layotgan bo'lib ilkfeodal jamiyati tuzilyotgan edi. Sug'orish va chorvodorchilik ancha rivojlangan edi. Eronni boy shaharlari o'zini o'zini hunarmandchilik va savdo-sotig'i bilan mashhur edi. Eronni kumush va misdan yasalgan buyumlari, ajoyib qurollari, ta'biy ranglari, attorlik mollari, ba'diy arnament bilan bezalgan gilam, zig'ir, jun, VI asrdan boshlab esa ipakdan qilingan g'azlamalari esa uzoq chet mamlakatlarida mashhur edi. Bu buyumlardan ko'plari Nafaqat O'rta dengiz, balki Osiyo mamlakatlariga ham, xususan Xitoyga olib borilgan. Eronni iqtisodiyotida muhim o'rinni tranzit savdosi egallagan edi: uzoq karvon yo'llari bilan O'rta dengiz mamlakatlaridan O'rta Osiyoga, Eron va Iroq orqali Xitoy va Hindistonga qimmat-baho mollar olib kelishgan: suriya va misr g'azlamalari, moxir hunarmandlar tomonidan shisha va metaldan yasalgan buyumlar. Afsonaviy Hindiston va noma'lum Xitoydan, karvonlar qimmatboho tosh, atir, dorivorlar va eng qimmat xitoy ipagi bilan qaytib kelishardi. Xitoy nafaqat misli ko'rinmas g'o'zallikdagi matolar, balki VI asrda Eronni ipakni qayta ishlash va tikish ustaxonadlari uchun ipak hom-ashyosini etkazib beruvchisi edi. Garchi VI asrdan boshlab Eronda o'zini ipakchiligi mavjud bo'lsada, ammo Xitoyni ipak ishlab chiqarishda egallagan monopoliyasi o'zgarishsiz qolgan edi. VI asrda Vizantiyani ham Uzoq Syarq mamlakatlari bilan bo'lgan tranzit savdosida qig'iqishi katta edi, ayniqsa Xitoy bilan ipak savdosida. Hindiston va Xitoyga bo'lgan karvon yo'llari Eron xududlari orkali o'tgani, O'rta va Qora dengizlariga chiqish yo'llari esa Vizantiya qo'lida bo'lganligi sababli, ular o'rtasida bu muhim savdo yo'llarini egallash uchun so'zsiz jiddiy raqobatchilik bo'lgan.

Vizantiya va Eron o'rtasida to'qnavshuvlarda mo'him o'rinni siyosiy jihatdagi sabablar egallagan. VI asrda Vizantiya va Eron Old Osiyoda eng yirik siyosiy kuchlar bo'lib, boshqa davlat, qabila va halqlar ular atrofida jipslashib, visilevslar imperiyasini yoki Sosoniylar mamlakatini protektorati yoki ularga to'g'ridan to'g'ri qaram bo'lishgan.

Shuning uchun Vizantiya va Eron o'rtasida nafaqat chegara kelishmovchiliklari sabali, ayniqsa Mesopotamiya deb, tez-tez to'qnashuvlar vujudga kelgan, balki ikkala davlatni yaqinida yashagan qabila va halqlar ustida o'z hukmdorligini o'tkazish bo'yicha ham kelishmovchiliklar kelib chikkan. Suriya va Evfrat etagi orasida ko'chib yurgan arab qabilalari, shuningdek Kavkazorti davlatlari Eron va Vizantiya o'rtasida doim nizo kelib chikishiga sabab bo'lardi. Bu vaqtga kelib Kavkazortida ilk feodal davlatlar tashkil topgan bo'lib, ular orasida eng asosiysi Armaniston edi. IV asrga kelib u vizantiya ta'siri ostida bo'lgan G'arbiy Rim Armanistniga, va Eronga bo'ysungan Fors Armanistoniga bo'lingan edi. Ilk feodal davlatlar Gruziyada ham tashkil topgan. Bu holda ham IV asrga kelib, Armaniston Rim va Vizantiya o'rtasida bo'lib olganidan so'ng, Lazika Rimga, Kartli va Albaniya esa Eron qaramog'ida deb hisoblangan. Vizantiya ham, Eron ham bu bo'linishdan norozi bo'lib o'zgarishlar to'g'risida orzu qilishgan. Kavkaz orti davlatlari bosib olinganligi sababli, ayniqsa Qora dengiz bo'ylarida katta kema bandorgohlariga ega bo'lgan muhim strategig hudud bo'lgan Armaniston va Lazika uchun, VI asrda Vizantiya va Eron o'rtasida doimiy kurash olib borilardi. Bu kurashda Vizantiyani muhim kuziri Kavkaz orti halklarini muvaffaqiyatli ravishda hristiyan diniga

o'tkazilish siyosati bo'lgan. Xristianlikni provoslav shakli IV asrdan Armaniston, Kartli va Lazikada, VI asrdan esa Lazikada o'rnatilgan, faqatgina Antropatenda zardo'shlik hukm surgan.

Vizantiya boshida Eronda ta'qib qilinib kelinayotgan xristianlarni himoyachisi sifatida chiqqan edi, lekin Eronni hristian aholisi orasida nestorianlik, keyin esa monofisistlik baland kelganidan so'ng ularga yordam berishni to'htatib qo'ydi. Konstantinopolga qarshi, eron huqumati nestorian va monofisistlar dinini e'tirof qilish siyosatini olib borishni boshladi.

Gunn-eftalit bo'lgan ko'chmanchi halklarini bostirib kelish xavfi, 337 va 502 yillar orasida Eron va Vizantiya tinchlikda yashashiga olib keldi. Biroq imperator Anastasiy, ayniqsa Yustinian davrida yana urush havfi paydo bo'ldi.

Urush 527 yilda boshlandi. Bunga vizantiyaliklar tomonidan fors chegariya yaqinida Dari qal'asidan tashkari, Nasibisa eron shahri yaqinida yana bittasini kurilishi bevosita sabab bo'ldi. Eron shahonshohi Kavad (488-531) tinchlikni buzib Mesopotamiyaga hujum qildi. Forslarga bu vaqtda Dari qal'asi garnizonini boshlig'i bo'lgan Velisariyni ko'shinlarini mag'lubiyatgan uchratib yangi qal'ani kurilishiga halaqit berishga erishishdi. 529 yilda Velisariy Eronga qarshi urush olib borish uchun to'plangan qo'shinga komondon etib tayinlandi. Lekin harbiy harakatlar sust olib borilardi. Bu vaqt Eronda mazdakitlarni keng halq harakati boshlanib, Kavad va uning o'g'li Xosrov ularga qarshi qattiq kurash olib borishga majbur bo'lishdi. Mazdakitlar harakati dehqon va qullarni eng keng guruhlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, shahar kambag'allari orasida ham tarqaldi. Mazdakitlar umumiy teng huquqlikni, boylarni mulklarini bo'linishini va erni dehqonlarga berilishini talab qilishgan.

Harakat o'ta katta daraja olganidan so'ng, Kavad yon berishga majbur bo'lib Mazdakni o'z maslahatchisi qilishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari Kavadga doim zodogonlar va ruhoniylarni fitnalari xavf solardi. Yustinian esa G'arb tomonga yurishna rejalashtirib, Sharqdagi urushdan manfaatdor emasdi. Vizantiya imperatorini Falistindagi halq harakati ham yon berib muzokora olib borishga majbur qilardi. Eron bilan tinchlik o'rnatish bo'yicha muzokoralar boshlandi. 529 yili urush sahnasida sukut o'rnatilishi, Yustinianga bu yilning yozida yuz bergan samaritanliklar qo'zg'olonini bostirishga imkon berdi.

530 yili eronlik sarkarda Peroz imperiya hududlariga bostirib keldi, ammo Veplisariydan mag'lubiyatga uchrab chekinishga majbur bo'ldi. Biroq bu g'alaba xech qanday foyda keltirmadi. Kavad bilan tinchlik to'g'risida cho'zilib ketgan muzokaralar bu vaqtga kelib to'htatildi. Eronda ichki holat o'zgardi. Kavadni o'g'li Xosrov, mazdakitlar harakatini boshliqlarini Ktesofopga muzokara olib borish uchun hiyla bilan taklif qilib, ziyofat vaqtida bitta qo'ymay qirib tashladi. Mazdakitlarni ommaviy yo'q qilinishi boshlandi. Isyonchi dehqonlar tomonidan tortib qo'yilgan erlar, ularni avvalgi xo'jayinlariga qaytarilib berildi. Mazdakitlar harakati yashirincha ish tutishga o'tib ketdi. Samaritliklar forslarni Falistinga chaqirishar edi. Bundan tashqari Vizantiya va Eron o'rtasida nizoni avj olishini kuchayishiga, bu ikki buyuk davlatlarni shimoliy arab qabilalari uchun bo'lgan kurashni keskinlashuvi sabab bo'ldi.

Arabiston yarim orolini hududidan tashqarida yashayotgan, asosan ko'chmachilari va chorvodor bo'lgan shimoliy arablar, ko'plab qabilalarga bo'lingan bo'lib, urgdosh jamoa tuzumini buzilishini turli-hil jarayonlarida turardi. V asrga kelib Falistin va Suriya cho'llarini chegaralarida Vizantiya tobe bo'lgan Gassaniylar davlati paydo bo'ldi. Biroz oldinroq esa IV asrda, Mesopotamiya va Suriya cho'lini chegarasida laxm qabilasi boshchiligida arab podsholigi tashkil topgan bo'lib, Laxmidlar davlati deb atalgan. Laxmid podsholigi Eronga tobe bo'lgan. Bu davlatlarni arab shayhlari va xukmdorlari o'zining siyosiy qiziqishlarida o'zgaruvchan bo'lib, doim bir-birlari bilan dushmanli qilib kelardi, Vizantiya bilan Eronga qarshi fitnalar uyushtirib, gohi vizantiya imperatori, gohi buyuk "shohlar shohi" Eron shahonshohi saroyida iltifot istardilar. Konstantinopol katta mukofot evaziga, Gassaaniylar davlatining arab qabilalarini imperiyaning chegaralarini eron xavfidan himoya qilish uchun

ishlatishga harakat qilishardi. Yustinianni hukmati Gassaniylarni doim Eron va Laxmidlar podsholigiga qarshi gij-gijlab kelgan (uning markazi Evfratdagi Xira shahri edi). Uzoq vaqt davomida bu davlat boshchiligida, vizantiyaliklar Alamundar deb atashgan, qanchalik jasur bo'lsa shunchalik makkor bo'lgan hukmdor Mundzir III (505—554) turgan. Alamundar eron hukmatini homiyligidan foydalangan. O'zining bosqinlari bilan u ko'p yillar davomida Suriya, Finikiya va Mesopotamiya aholisini dahshatga solgan. 528 yili Alamundar tomonidan Vizantiyani ittifoqchisi bo'lgan Gassaniylar qabilalari boshlig'i Arefn o'ldirildi. Shunda Vizantiya Alamundarga qarshi o'z qo'shinlarini yuborib uni ko'chmachi qarorgohlarini vayroni qildi. Lekin kelgusi yili Alamundr Suriyaga dadil yurish qilib, Antioxiya devorlarigacha etib bordi va hammayoqqa o't qo'yib barchani qilichdan o'tkazdi. Suriyaga bo'lgan zarba Vizantiya uchun juda sezilarli bo'ldi, va u Alamundarga qarshi ittifoqchilari bo'lgan arab qabilalarini ishga solishga majbur bo'ldi.

531 yili Yustinianni yordamida Gassoniylar podsholigiga Gabalning (Xarig-ibn-Gabala) o'g'li Aref (531-570) podsho bo'ldi. Aref Vizantiyani sodiq ittifoqchisi bo'lib qolgan, lekin u Alamundarga jasurlik va serg'ayratlik bo'yicha yutkizardi. 531 yili Eron nafaqat arablarni ishlariga aralashib ularni Vizantiya bilan bo'lgan ittifoqiga to'sqinlik qilishni istardi, balki Alamundr tomondan ochib berilgan yo'l orqali Suriyaga ham bostirib kirmokchi edi. Sarkarda Azaret boshchiligidagi fors qo'shinlari chindan ham Evfratisiyaga, so'ngra esa Mesopotamiyaga bostirib kirishdi. Velisariy o'z qo'shinlari bilan ularga qarshi Mesopotamiyaga yo'l oldi. 531 yil 19 aprel kuni Suriyadagi Kallinika shahri yaqinida fors va vizantiyaliklar o'rtasida shavqatsiz jang bo'lib o'tdi. Velisariy unda to'la mag'lub bo'ldi. Buni sabablari uning armiyasida intizom yo'q bo'lib, Arefaning arab qo'shinlari jangni hal qiluvchi vaqtda qochib ketganliklari bo'ldi. Forslarni g'alaba qozonganiga qaramasdan ular yurish oldida qo'ygan maqsadlariga erisha olmadi. Qurbonlar soni qo'p bo'lganligi sababli ular Eronga qaytib ketishdi. Yustinian Sharq qo'shinlarini komondoni lavozimidan Velisariyni bo'shatib, uni o'rniga Mundni tayinladi. Vizantiya hukmati o'z tomniga Alamundardek havfli raqibni og'dirishni rejalashtirdi, va ma'lum darajada omadga erishib, vaqtincha bo'lsada o'z hududlarini uning hujumlaridan asrab qoldi.

Suriya va Mesopotamidan tashqari bir vaqtning o'zida Vizantiya va Eron o'rtasida harbiy to'qnashuvlar Armaniston va Lazikada ham bo'lib o'tardi. Yustinian turli yo'llar bilan Armanistonni g'arbiy qismida o'z hukmdorligini o'rnatishga harakat qilar edi. 30-yillarni boshlarida forslar vizantiyaliklar bilan Martiropol qal'asi uchun urush olib borardi. Urush o'zgaruvchan bo'lib, faqat shoh Kavadni o'limidan so'ng yakunlandi. U 531 yilning sentyabr oyida vafot etdi. Alohida to'qnashuvlar vizantiyalik va forslar o'rtasida Lazikada bo'lib o'tardi. Kavadni o'limi taht uchun keskin kurash boshlanishiga sabab bo'ldi. Shahanshoh uni kenja, sevimli va eng mOxir o'g'li Xosrovga qoldirgan edi. Eron zodogonlari Xosrovning akasi Zama qiyshiq bo'lib, o'rnatilgan odat bo'yicha tahtni egallay olmaganligi sababli uning hali kichik bo'lgan o'g'lini tahtga o'tkazish maqsadida fitna uyushtirgan edi, Zamani o'zi esa uning vasiyi etib tayinlanardi. Lekin fitna ayon bo'lib va Xosrovning otasini boshqa hotinlardan bo'lgan barcha aka-ukalari o'ldirilib yuborildi.

Ichki qiyinchiliklar Xosrov I Anosharvanni («Adolatli») (531-579), Vizantiya bilan tinchlik tuzishga yo'l istashga majbur qildi. Bunga Yustinian ham intilardi. 532 yilning sentyabr oyida tinchlik sulhiga imzo qo'yildi, u «Abadiy» deb atalgan edi.

«Abadiy» tinchlik Vizantiyani juda katta siyosiy va diplomatik yutug'i edi. Bunga qaramasdan Eron bilan bo'lgan raqobat davom etardi.

VI asrda Xosrov I Vizantiyani eng xavfli va ashaddiy dushmanlaridan edi. Butun tinchlik vaqti (532-540 yy) Yustinianni G'arb tomonda bo'lgan muvaffaqiyatlarini kuzatib, u mahfiy ravishda raqibi bilan bo'ladigan urushga tayorgarlik ko'rar edi. Eron hukmati shuni tushunar ediki, vasilevs romeylarni o'z hukmdorligini kengaytirish niyati, Oxir-oqibat Sosoniylar davlatiga ham xavf solasdi.

540 yilni bohorida shohonshoh boshchiligidagi forslarni katta qo'shini Suriyaga bostirib kirdi. Mamlakat qonga bo'yalib, minglab ag'oli asrga olib qullikka olib ketilar edi. O'z yo'lida hamma yoqni talab, shoh Xosrov Antioxiyaga etib keldi. Antioxiya zabt etilib forslar O'rta dengiz qirg'oqlarida joylashgan Seleviyaga yol olishdi. Lekin, Vizantiya ularga qarshi yangi kuchlar junatishini tushinib ular bu erda uzoq qolmasdan ortga qaytishdi. Suriyani talanib Antioxiyani qulashi imperiya uchun og'ir o'ziga kelolmagan zarba bo'ldi.

Kelgusi 541 yilda Vizantiya va Eron o'rtasidagi harbiy harakatlar Lazikaga ko'chib o'tdi. Lazika Vizantiya uchun kulay bo'lgan harbiy to'siq jdi, Eron uchun esa u Vizantiyaga kelgusida yurishlar uchun kulay harbiy tayanch punkti edi. Qora dengizdagi savdoda muhim o'rin egallashi sababli, Lazika ikkala davlat uchun iqtisodiy jihatdan muhim edi. Lazikada boshqaruv chindan vizantiyalik noiblar qo'lida jdi.

Lazliklar vizantiyaliklar do'stona yordam beramiz deb, haqiqatda esa ularni mamlakatlarini egallab olishganidan norozi edilar. Ular vizantiyalik noiblarning nohaq boshkaruvidan ko'p aziyat chekasdi. Lazliklar fors shohidan yordam so'rab unga elchilar yuborishdi. Forslar katta qo'shin bilan Lazikaga bostirib kirishib Xosrov bir necha g'alabalarni qo'lga kiritdi, mahalliy halkni yordami bilan ular Petra qal'asini egallashdi, so'ngra Sevastopol va Tititsit qal'alari qo'lga olindi. Xosrov Petrada kuchli qo'shin qoldirib garnizonga Eronga qaytib ketishga qaror qildi.

Kelgusi yillarda urush o'zgaruvchan bo'ldi. Italiyadagi Totilabilan kurashdagi muvaffaqiyatsizliklar va mamlakatning iqtisodiy holatini og'irlashuvi Yustinianni 545 yilda Eron bilan tinchlik istashiga majbur qildi. Besh yilga vaqtinchalik tinchlik sulhi tuzildi.

549 yilda Eron va Vizantiya o'rtasida Lazika uchun yana kurash boshlandi. Bu urush nihoyat 561 yili, 50 yillik tinchlik sulhi tuzish bilan yakunlandi. Shunday qilib, uzoq davom etgan qonli urush Vizantiya va Eron o'rtasida mustahkam tinchlik tuzish bilan yakunlandi. Bu ikkala buyuk davlatlarini aholisi uchun katta engillik edi. Ko'plab qurbonlar behuda bo'ldi. Eron O'rta va Qora dengizdan uzub qolinganicha qoldi, Vizantiya esa uni Uzoq Sharq mamlakatlari bilan bo'lgan savdo monopoliyasini engay olmadi. Oxir-oqibat Vizantiya va Eron bu urushdan holsizlanib chiqishdi.

3. VIZANTIYANING YEVROPA MAMLAKATLARI BILAN OLIB BORGAN XALQARO ALOQALARI

IV asrning oxiridan Rim imperiyasi chegaralarini yorib o'tgan german qabilalari birin - ketin viloyatlarni bosib olishardi. Imperiya ushbu davrda ichki inqiroz va emirilish holatida edi.

Ichki inqiroz ayniqsa avj olgan G'arbiy imperiya birma - bir viloyatlarni yo'qotardi. Biroq mustaxkamroq bo'lib chiqqan Sharqiy imperiya ham varvarlar siquvini butun kuchini ishlatgan holda to'xtatib turardi. V asrning boshida vestgotlar Sharqiy Rim imperiyasining Bolqon viloyatlarini xarob etishdi, Italiyani er bilan yakson qilishdi va Rimni talon - taroj qilib ketishdi. Ispaniya va janubi - g'arbiy Galliyada vestgotlar o'z qirolligiga asos solishdi. Vandallar, svevlar, burgundlar, franklar imperiyadan birin - ketin viloyatlarni tortib olishardi. Xitoyning shimoliy chegaralaridan uzoq yo'l bosib kelgan ko'chmanchi - xunlar IV - V asrlarda Volgadan Reyngacha bo'lgan ulkan hududlarni bosib olishdi va o'zlarining qudratli davlatini barpo etishdi.

Ham Sharqiy imperiyaga, ham G'arbiy imperiyaga, varvarlar bilan nafaqat urush olib borish, balki murakkab siyosiy munosabatlarga kirishishga to'g'ri kelardi. Ushbu asnoda varvarlar va Rim imperiyasi, yoki aniqroq qilib aytganda ikki Rim imperiyasi, o'rtasida diplomatik munosabatlari paydo bo'lardi.

Varvarlar, G'arbiy imperiya viloyatlarida joylashib, tez sur'atda yangi ijtimoiy tartiblarga o'tishardi. Vujudga kelgan varvar qirolliklari o'rtasidagi chegaralar aniq va belgilangan emasdi.

Nizolar nafaqat qurol vositasida, balki muzokaralar orqali ham hal etilardi. Varvarlar davlatlarining tashkil etilishi sayin ularda albatta o'zlarining diplomatiyasi paydo bo'lardi.

Sharqiy Rim imperiyasining (Vizantiyaning) diplomatik xizmati varvar qirolliklari uchun andoza qilib olinardi. Eski an'analarni saqlab qolgan Vizantiya diplomatiyasi butun o'rta asrlar diplomatiyasiga ulkan ta'sirini o'tkazdi. Vizantiya diplomatiyasining tamoyillari va tashqi usullari imperator Yustinian I faoliyatda eng yorqin ifodasini topdi. Ushbu davrda Sharqiy Rim imperiyasi qudratining eng yuksak darajasiga etgandi.

Yustinian mohirona diplomatik o'yinlarni harbiy zarbalar bilan birgalikda ishlatardi-ki, ular uning imperiyasi sarxadlarini g'arb tomon anchagina kengaytirdi.

Vizantiya diplomatiyasining asosiy vazifasi varvarlarni imperiyaga taxdid solish o'rniga unga xizmat qilishga majbur etish edi. Konstantinopolda varvarlarning knyazlik urug'lari orasidagi nizolarni ziyraklik bilan kuzatishardi. Eng muhimi ularning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, ustalik bilan nifoq solmoq, o'zaro nizolar orqali ularni zaiflantirmoq edi. Qo'shnilarni bilan shaxmat sipoxlari kabi muomala qilish mahorati Yustinian diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U o'zaro nizolarni keltirib chiqarishni butun bir tizim darajasiga ko'tardi.

Bundan tashqari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga harbiy aralashuv Yustinian siyosatining vositalaridan biri edi. Bunday siyosat vandallar va ostgotlar bilan bo'lgan urushlarda yorqin ifodasini topdi.

Diplomatiya savdoning rivojlanishiga xizmat qilardi. O'z navbatida savdo aloqalarining kengayishidan Vizantiyada diplomatiyaning eng qudratli qurollaridan biri sifatida foydalanishardi.

Xristian dinini yoyish ham Vizantiya imperatorlarining eng muhim diplomatik qurollaridan biri edi. Jumladan, Rus davlatida xristianlikning yoyilishi Vizantiyaning katta diplomatik g'alabasi edi. Xristianlikka kiritilgan mamlakatlarda Vizantiyaning ta'siri o'rnatilardi. Vizantiyaga qaram bo'lgan ruhoniylar qatlami, savodlikning yagona sohibi sifatida varvarlar davlatlarida katta rol o'ynardi.

Birinchi vazir boshqaruvi ostida bo'lgan tashqi ishlar idorasi (magister officiorum, keyinchalik "logofet droma"), xodimlarning katta tarkibiga ega bo'lib, uning ixtiyorida barcha tillardan tarjimonlar mavjud edi, elchilarni qabul qilish marosimining murakkab tartibini ishlab chiqdi.

Konstantinopol saroyi qoshida elchilik xizmatining ma'lum qoidalari ishlab chiqildi. Elchi hukmdorning vakili edi va muzokaralarni faqatgina unga berilgan vakolatlar doirasida olib borishi mumkin edi. Ushbu qoidani buzgan elchi qattiq jazoga tortilardi. Faqatgina kamdan - kam uchraydigan holatlarda imperator vakillariga butun ma'suliyatni o'z bo'yniga olib mustaqil muzokaralar olib borishga ruxsat berilardi.

Odatda elchilar yuqori martabaga ega bo'lgan insonlar edi. Ko'pincha Vizantiyada elchilarga yuqori unvonlar maxsus berilardi-ki, agar ular avval bunday darajaga egalik qilmagan bo'lsa.

Vizantiya elchilarga o'zga mamlakatlarda xatti - harakat va yurish - turishning aniq qoidalariga rioya qilish amr qilingandi. Elchi xushmuomalaligini, saxiyligini namoyon etishi, o'zga saroyda ko'rganlarini barchasini maqtashi kerak edi, ammo buni shunday amalga oshirish lozim edi-ki, bu Vizantiya tartiblariga nisbatan gina sifatida namoyon bo'lmasin; u sharoitga qarab ish tutmog'i biron - bir narsaga o'zgacha usullar bilan etishmoqning imkoni bo'lgan taqdirda kuchdan foydalanmasligi lozim edi.

Rasmiy jihatdan elchilarga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik buyurilardi. Lekin amalda har doim ham bunga rioya qilinmasdi. Elchilar tuzgan shartnoma faqatgina imperator ratifikatsiya (tasdiqlangandan) qilganidan so'ng kuchga kirardi.

Elchilar daxlsizligi taomiyili varvarlar tomonida tez o'zlashtirib olindi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, varvar qirollarining elchiliklarida Vizantiya odatlariga xos bo'lmagan hususiyatlar

uchraydi. Varvar a'yonlari orasida muzokaralarning yozuv - chizuv qismini mustaqil olib borishga qodir ma'lumotli insonlar kam edi. Shuning uchun qirollarining elchiliklarida odatda ruxoniylar qatnashardi. Bunday holat vizantiyaliklarda juda kam uchrardi.

Varvar qabilalari orasida Rim diplomatiyasining usullari nafaqat Vizantiya, balki Rim papasi kuriyasi tomonidan yoyilardi. Kuriya eski imperatorlik devonxonasining odatlari va usullaridan ko'plarini saqlab qolgan edi.

Papa diplomatiyasining ta'siri juda kuchli tarzda butun o'rta asrlar siyosiy tarixi davomida sezilardi.

G'arbiy - Rim imperiyasining qulashi va Italiyada varvarlar hokimiyatining o'rnatilishi papalikning xalqaro ahvolini murakkablashtirdi. SHu sababli papalar Vizantiya imperatoridan umidlari katta edi. Konstantinopolda papalarning doimiy vakillari sanalmish apokrisiariylar mavjud edi. Sof cherkov masalalaridan tashqari apokrisiariylarga Vizantiya saroyidagi siyosiy kayfiyatlarni kuzatish vazifasi ham qo'yilgandi.

Yustinianing Italiyani zabt etishi va shundan so'ng tez orada ro'y bergan Apennin yarimorolining langobardlar tomonidan bosib olinishi natijasida papalar Rim hukmdorlariga aylanishdi.

Ular faqat nomigagina Vizantiya imperatoriga bo'ysunardilar, lekin faktik jixatdan deyarli mustaqil edilar. Ammo Vizantiyaning ta'siri asta - sekin zaiflashdi. Shu paytning o'zida G'arbda Franklar davlati kuchaymoqda edi-ki, papalar unga ham Vizantiyaga, ham langobardlarga qarshi tayanch sifatida qarashardi.

VII asrda arablar istilolari natijasida zaiflashgan Vizantiya Rim papalariga qarshilik qila olmadi. Papalar Vizantiya imperatorlariga qaramlikdan qutulib, mustaqil hukmdorlarga aylanishdi.

Rim papalari, langobardlardan o'zini himoya qilish uchun yordam so'rab, franklarga murojaat etishdi. Franklar esa, o'z navbatida, VIII asrning o'rtalarida Italiyaga bostirib kirishdi va langobardlarni tor - mor qilishdi. 754 yil shartnomasiga ko'ra langobardlar qiroli nafaqat Rimni tinch qo'yish, balki papaga Ravenna, Rimni, Urbino va boshqa shaxarlarni topshirish majburiyatini oldi. Biroq, langobardlar qirolini o'z majburiyatlarni bajarishga majbur etish uchun yana bir harbiy ekspeditsiya zarur bo'ldi.

Franklar qiroli va papa o'rtasida chambarchas aloqa o'rnatildi-ki, u doimiy tarzda elchiliklar bilan o'zaro almashuv, hamda Vizantiya va boshqa saroylar huzuriga qo'shma elchiliklar yuborish orqali o'z ifodasini topdi. Barcha ushbu elchiliklarda papa elchilari tobelik rolini o'ynashardi.

Papalar o'zlarining tashqi aloqalarida erkinlikka ega emasdi va franklar hukmdorlaridan "maslahat" so'rashga majbur edi. Papaning qaramligi ayniqsa Buyuk Karl (768 - 814yy.) davrida kuchaydi.

Buyuk Karlning imperiyasi Evropada eng yirik kuchga aylandi. Vizantiya bilan munosabatlar Karl diplomatiyasida o'ta muxim o'rinni egallardi. Vizantiya arablar, bolgarlar, avarlarning hujumlarini qiyinchilik bilan qaytarayotgan va ta'siri zaiflashayotgan paytda G'arbiy imperiyaning nufuzi juda oshib ketdi. Karl Sharqda bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi. Avval Vizantiya imperatori himoyasi ostida bo'lgan Falastindagi "muqaddas joylar" endi Karl vasiyligiga o'tdi. Koronatsiyasi (taxtga mingan xukmdorga toj kiydirish marosimi) o'tkazilgan yilda Quddus patriarxi Karlga "Iso payg'ambar qabri" ning kalitlarini Quddus shahrining bayrog'lari va kalitlariga qo'shib topshirdi.

Karl huzuriga, poytaxti Axen shahriga Daniya, Angliya va boshqa mamlakatlardan elchilar etib kelardi. Alfons II, Asturiya qiroli, Shotlandiya qirollari unga o'z elchiliklarini yuborishardi. Ularning barchasi G'arb imperatori bilan do'st bo'lish va ittifoq tuzishga intilardi.

IX asrda Pridnestrove va unga tutashgan erlarda qudratli qadimgi Rus davlati yuzaga keldi. IX asr oxirida urushlar va istilolar natijasida qadimgi Rus davlati shu qadar kuchga ega bo'ldi-ki, qo'shni xalqlar buni inobatga olmasdan iloji yo'q edi.

Qadimgi Rus davlati murakkab xalqaro munosabatlar tizimiga juda erta kirib bordi.

Rus davlati janubda Vizantiya va Dunay bo'y i slavyanlarning Bolgariya davlati, sharqda Xazar xoqonligi va Volga Bolgariyasi shimolda Skandinaviya bilan aloqalarga ega edi. Skandinaviya bilan esa Kiev knyazlarini sulolaviy munosabatlar bog'lab turardi. O'sha erlardan knyazlar yollanma harbiy kuchlarni olishardi, varyaglardan bo'lgan sarguzasht ishqibozlarining to'xtovsiz yopirilib kelishi ham o'sha joylardan ro'y berardi. Xazarlar erlari orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariga olib boradigan savdo yo'li o'tardi-ki, ushbu mintaqaga ruslar qullar va mo'ynani tashib borishardi. Bir paytlar xazarlar xoqonlari qadimgi Rus knyazlari bilan Dnepr bo'y i aholisidan o'lpon yig'ish uchun kurashishga urinib ko'rishdi.

Sharqiy slavyanlar tarixiga ularning Vizantiya bilan qo'shni bo'lganligi katta ta'sir o'tkazdi.

Vizantiya Qadimgi Rus uchun bozor sifatida xizmat qilardi-ki, bu erda knyazlar va drujinachilar mo'yna, qullarni sotishardi va zar bilan to'qilgan matolar, hamda zeb - ziynat buyumlarini olishardi. Sargradda (Konstantinopolda) "majusiy Rus davlati" ko'rkam Vizantiya madaniyati bilan tanishardi.

Sargradning boyliklari va hashamati bosqinchilari doimo o'ziga tortib kelgan: Rus davlati tomonidan Vizantiyaning Qora dengiz egaliklari va Konstantinopolning o'ziga qilingan bir qator vayron etuvchi yurishlarning davri IX asrdan XI asrgacha cho'ziladi.

Vizantiya qudratli Rus davlatini o'zining siyosiy tizimiga tortishga juda erta intilishni boshladi. Maqsad, bir tomondan, ushbu davlatning imperiyaga nisbatan solayotgan taxdidini pasaytirish va ikkinchi tomondan esa, Rus davlatidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish edi.

Cho'qintirishga Vizantiya imperatorlari va siyosatchilari Rus davlatining imperiyadan bavosita vassal qaramligi sifatida qarashardi. Biroq, bunday siyosat muvaffaqiyatli bo'lmadi. Kiev knyazlari har safar harakat erkinligini o'z qo'llarida saqlab qolaverishdi.

Cho'qintirishdan so'ng Rus davlatining xalqaro aloqalari sezilarli darajada kengaydi va mustahkamlandi. Qadimgi Rus davlati nafaqat Vizantiya, balki Evropaning katolik davlatlari bilan munosabatlarga, ularga teng va to'la huquqli sherik sifatida, kirib bordi. Rus davlatining tashqi siyosiy aloqalari faqatgina qo'shni mamlakatlar (Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Skandinaviya mamlakatlari va boshq.) doirasida cheklanmadi, balki Germaniya, Fransiya va boshq. kabi mamlakatlar bilan ham rivojlandi.

Istilolar negizida yuzaga kelgan varvar davlatlari uzoqqa chidamaydigan bo'lib chiqdi. Buyuk Karlning davlati o'zining birinchi imperatoridan so'ng ko'p umr ko'rmadi. Parchalanishning yaqinlashib kelayotganligi Karl hayotining oxirgi yillarida ham sezilardi. Imperiyaning emirilishi uning o'g'li Lyudovik Xudojo'yning (814-840 yy.) hukmronligida avj oldi. Lyudovik, o'zida oliy hokimiyatni saqlab qolib, imperiyani o'g'illariga bo'lib berdi. Farzandlar esa otasiga qarshi urush boshladilar. Uning o'limdan (840 y.) so'ng bir - birovlari bilan jang olib borishdi. Karl Yaltiroqbosh va Lyudovik Nemis Strasburg shaxrida katta akasi - Lotarga qarshi bitim tuzishdi. Lotar imperatorlik tojini olgandi va o'z huquqlarini amalda bajarmoqchi edi. "Strasburg qasami" - bu lotin yoki yunon tilida emas, balki fransuz va nemis tillarida tuzilgan birinchi diplomatik hujjatdir. Mag'lubiyatga uchragan Lotar yon berdi va 843 yilda Verden shahrida imperiyani uch aka - uka o'rtasida bo'lib olish to'g'risidagi mashhur shartnomasi tuzildi. Rasmiy jihatdan imperiyaning mavjudligi tan olindi, yoki, aniqroq qilib aytganda, imperator unvon i saqlanib qolindi. Ushbu unvon katta akasi - Lotarga o'tgandi. Ammo imperiya erlari uch qismga bo'lindi. Imperiyaning g'arbiy erlari - "g'arbiy franklar qirolligi",

keyinchalik Fransiya nomi bilan atalgan, - Karl Yaltiroqbosh qo'liga o'tdi; sharqiy qism - "sharqiy franklar qirolligi", keyinchalik Germaniya deb nomlangan, - Lyudovik Nemisga berildi; Lotarga esa Karl va Lyudovikning erlari oralig'idagi hududlar, ya'ni Reyn daryosining quyilish joyidan Rona daryosining quyilish joyigacha bo'lgan erlar va Italiya tegdi. Verden shartnomasidan so'ng yangi to'qnashuvlar ro'y berdi va yangi bitimlar imzolandi. Buyuk Karl imperiyasi bir qator mustaqil davlatlarga - Fransiya, Germaniya, Italiya va Burgundiyaga yoki Arelatga batamom parchalanib ketdi. Lekin, ular nomiga davlatlar edi xolos. IX - XI asrlarda G'arbiy Evropada siyosiy tarqoqlik hukmronlik qilardi. Pirovardida, kuch alohida feodal egaliklari o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishida hal qiluvchi omilga aylandi va ko'p hollarda syuzeren o'z vassali oldida titrardi. Zotan, bunday holatda davlat va shaxsiy egalik o'rtasidagi, umumiy va shaxsiy huquq o'rtasidagi, ichki va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi chegara yo'qolardi.

Sud va boshqaruv huquqiga, solig'larni yig'ish va tanga - chaqa zarb qilish huquqiga, hamda harbiy kuchga ega bo'lgan har qanday etarlicha qudratli senor o'zini mustaqil hukmdor sifatida xis qilishi, kim bilan xohlasa tinchlik shartnomalari va ittifoqlar tuzishi mumkin edi. O'ta feodal tarqoqlik va Evropani bo'lib tashlagan ko'plab mayda chegaralarning mavjudligi sharoitida yirik davlatlar sarxadlari siyqalanib ketishi xalqaro munosabatlar to'g'risidagi tushunchani chigallashtirib yuborardi. Senoriya tushunchasi davlat tushunchasini surib chiqarardi.

Yirik zamindor hukmdorga, davlat esa votchinaga (merosiy yer - mulkiga) aylangandi. Barcha joylarda shaxsiy urush huquqi o'rnatildi. SHu sababdan shaxsiy diplomatiya haqida so'z yuritish mumkin. Ikki feodal senor mustaqil davlatlarning rahbarlari kabi muzokaralar olib borishardi. Yirik senorlar o'zlarini mustaqil deya his qilishardi va shu sifatda ham horijiy, ham o'zining qirollari bilan munosabatlarni amalga oshirishardi. Bunday holat ham dunyoviy, ham diniy senorlarga taaluqli edi. Topshiriqlarni og'zaki yoki ramziy harakatlar yordamida etkazib bergan maxsus jarchilar (yoki xabarchilar, darakchilar) orqali urush e'lon qilish yoki tinchlik tuzishning rasmiy usullari ishlab chiqildi. Ushbu jarchilar geroldlar deb nomlanishdi. Ular o'z senorlarining gerblarini (tamg'alarini) taqib yurishardi, va ularning shaxslari elchilar kabi daxlsiz hisoblanardi.

Feodal anarxiyadan ziyon tortgan cherkov bunday tartibsizlikda muayyan tartib o'rnatishga bexuda intilardi. SHaxsiy urush huquqini cheklashga yoki yumshatishga qaratilgan ayrim qoidalarini kiritishga urinishlar qilinar edi.

Turli mamlakatlarda qirol xokimiyatining shaxsiy urushlarga barxam berish yo'lidagi intilishlarga qaramasdan, ular butun o'rta asrlar davrida astoydil davom etaverdi. Feodal Evropada shaxarlarning tarix maydoniga chiqishi qator hollarda hokimiyatning tarqoqligini murakkablashtirdi. Siyosiy mustaqillikka erishishga intilgan shaharlar hattoki shaxsiy urush huquqi mavjud bo'lgan barcha belgilarga ega o'ziga xos kollektiv senorlarga aylanishdi.

Franklar monarxiyasining shitob bilan emirilishini to'xtatishga samarasiz uringan cherkov ham feodal parchalanish jarayoniga duchor bo'ldi.

IX asr o'rtalarida G'arbiy va Sharqiy cherkovlar o'rtasidagi, ya'ni katoliklik va pravoslavlik o'rtasidagi, qat'iy uzilish 1054 yilda "cherkovlarning bo'linishi" bilan yakunlandi.

XI - XV asrlar davomida Evropada xalqaro munosabatlarning muayyan tizimi shakllanib bordi; asta - sekin ayrim diplomatik mezonlar va an'analar ishlab chiqildi.

Ammo ushbu davrdagi xalqaro munosabatlar hali etarlicha muntazam tusda emasdi: doimiy elchilar va diplomatik vakolatxonalar yo'q edi, xalqaro huquq ham hali shakllanmagandi.

Shu davrda xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga bir necha omillar ta'sir etdi: shaharlarning paydo bo'lishi, ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bog'liq bo'lgan Evropaning iqtisodiy o'sishi; yirik davlatlar hukmdorlarining, dunyoda o'z hukmronligini o'rnatishga qaratilgan da'volarini ilgari surgan va o'zining ustivorligi ostida universal (barcha joylarni qamrab olgan)

davlatni barpo etishga urinib ko'rgan xolda, boshqa mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirishga intilishi; xalqlarning shakllanishi va davlatlarning yuzaga kelishi jarayonlari va boshq.

XI - XIII asrlarda Evropa va Sharq mamalkatlari o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalar kengaydi va mustaxkamlandi. Bunga ham salib yurishlari, ham Genuya, Piza, Venetsiya kabi italyan dengiz respublikalarining savdo faoliyati, hamda Vizantiyaning vositachilik roli imkoniyat yaratib berdi.

XIII asrning 40 - yillarida Markaziy Evropaga mo'g'ullar istilosi xavf soldi. Mo'g'ul - tatarlarning ilg'or otryadlari Adriatikagacha etib bordi. Salib yurishlari va ichki nizolar oqibatida zaiflashgan G'arbiy Evropa yaqinlashib kelayotgan tahdid oldida ojiz bo'lib ko'rinardi. Biroq, ushbu davrga kelib Rusning qarshiligi sababli obdan darmoni qurigan mo'g'ullar Qora dengiz bo'yi va Volga orti dashtlariga burilib ketishdi.

XI - XIII asrlardagi xalqaro vaziyatga salib yurishlari katta ta'sir ko'rsatdi. Salib yurishlari G'arbiy Evropa feodallarining O'rta yer dengizining sharqiy sohillarida joylashgan mamlakatlarga qilgan bosqinchilik urushlardan iborat ediki, ular deyarli ikki yuz yil davom etdi (1096 - 1270yy.). Yurishlarning tashkilotchisi bo'lgan Katolik cherkovi ularni diniy tusdagi urushlarga - xristianlikning (salib, xoch ramzi bilan ifodalangan) musulmonlikka qarshi kurashishga aylantirdi.

Salib yurishlari birinchi galda, G'arbiy Evropa feodallari tajovuzkorligining o'sishi, ularning Sharqda boy yerlarni bosib olishga, hamda o'zlarining boyliklari va daromadlarini ko'paytirishga intilishlari negizida yuzaga keldi. Sharqiy yerlarni bo'ysundirish orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga erishmoqchi bo'lgan katolik cherkovi ham salib yurishlardan manfaatdor edi.

Salib yurishlari xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixining eng muhim bosqichlaridan birini tashkil etdi. Yurishlar davomida G'arb xalqlari Sharqning musulmon mamlakatlari va Vizantiya bilan to'qnashuvga kelishdi. Shu bilan birgalikda salib yurishlari G'arbiy Evropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlariga kuchli ta'sir etdi. Vizantiya, Venetsiya, normannlarning janubi - italyan davlati (Sitsiliya qirolligi), Fransiya, Angliya, Muqaddas Rim imperiyasi o'rtasida O'rta er dengizida ustunlik qilish uchun uzoq muddatli kurash avj oldi. G'arb va Sharq davlatlari turli ittifoqlar va koalitsiyalarga tortildi. Bundan tashqari, Sharqda salibchilar davlatlarining tashkil topishi diplomatik munosabatlarining yangi shakllarini, masalan konsullik xizmatini, keltirib chiqardi, chunki yangi davlatlarda alohida mamalakatlar vakillarining savdo manfaatlarini himoya qilish zaruriyati paydo bo'lgandi.

Italiya diplomatiya va xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Italiyada shaharlar qolgan Evropaga nisbatan ertaroq rivoj topgan bo'lishiga qaramasdan, ushbu mamlakat tarqoq bo'lib qolaverdi.

Shimoliy va qisman O'rta Italiya shaharlari, atrofidagi erlarni o'ziga bo'ysundirib, shahar - davlatlarga aylanishdi. Ular Evropaning iqtisodiy xayotida muhim rol o'ynardilar, Sharq bilan savdoni olib borishda vositachilik qilardilar. Italiya shaharlari orasida Venetsiya, Genuya, Milan, Florensiya kabi qudratli siyosiy markazlar birinchi o'ringa chiqdi.

Salib yurishlari davrida Kichik Osiyoda Rum Sultonligi nomi ostida yashagan saljuq turklari davlati XIII asr boshlariga kelib 10 ta amirlikka bo'linib ketdi. XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida yangi davlat tashkil bo'ldi. Unda ko'chmanchi o'g'uzlar etakchi rol o'ynadilar. Dastlabki vaqtlarda Erto'g'ul, o'g'uz qabilalarining raxbari bo'lib, Vizantiya imperiyasi bilan chegaradosh Sakaryo bo'yida kichik feodal mulkiga (beylikka) egalik qilardi. Erto'g'ulning o'g'li va taxt vorisi – Usmon (1282-1326) Vizantiyaga qarshi urush boshladi uning Kichik Osiyodagi mulklarining ko'pchiligini, shu jamladan, Brusu (yoki Bursu) shaharini bosib oldi. Brusu shaharini Usmon o'zining poytaxti qilib oldi. Vafotidan biroz burunroq Usmon Kichik Osiyodagi boshqa amirliklarni o'ziga itoat qildirdi.

Vizantiyaning zaiflashib qolganligidan va Bolqon yarim orolidagi boshqa davlatlarning parchalanib ketganligidan foydalanib, Usmon turklari XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, keyin esa Bolqon yarim orolda ham keng istilochilik harakatlarini boshladilar. Usmonning vorisi – Urxon 1331 yilda Nikey shahrini, keyin esa Vizantiyaning Kichik Osiyodagi boshqa barcha erlarini bosib olganidan so'ng, Evropada istilolar qilishga kirishdi. 1354 yili Urxon Dardanel bo'g'ozining Evropa qirg'og'idagi Gallipol shahrini bosib oldi. So'ngra turklar Frakiyaga kirib bordilar. Bu viloyat keyingi sulton, ya'ni Murod I zamonida (1359-1389) batamom zabt etildi. Murod I 1361 yilda Frakiyaning bosh shahri – Adrianopolni bosib oldi. 1371 yilda serblar, bolgarlar valaxlar va vengrlardan iborat koalitsiya (ittifoq) Murodga qarshilik ko'rsatishga urindi. Biroq ittifoqchilar Maritsa daryosi bo'yidagi jangda engildilar. Shundan so'ng Janubiy Serbiya sulton hokimiyati ostiga o'tdi. Vizantiya imperatori sultonga o'lpon to'lovchiga aylandi.

1389 yil 15 iyunda Kosovo maydonida (Janubiy Serbiya) serblar va ularning ittifoqchilari turklarga qarshi hal qiluvchi jangga kirdilar. Serblarning jasorati va Murod I-ning o'ldirilishiga qaramay, turklar g'alabaga erishdilar. Shundan so'ng Serbiyaning katta qismi Turkiyaga qo'shib olindi.

Turkiya davlatining kengayishi Amir Temur tomonidan vaqtinchalik to'xtatildi. 1402 yilda Temur ulkan qo'shin bilan Kichik Osiyoga kirib keldi. Boyazid xam katta harbiy kuchga ega edi, biroq Kichik Osiyodagi turk amirlarining bir qismi sultonga xiyonat qildi va Temur tomoniga o'tib ketdi. Hal qiluvchi jang 1402 yil 28 iyunda Angor (hozirgi Anqara) shhri yonida bo'lib o'tdi va turklar to'la mag'lubiyatga uchradilar. Boyazid qochish paytida qo'lga tushdi va tez orada asirlikda vafot etdi.

XV asrning 20-yillarida turklar yana qaddilarini rostlab oldilar. Sulton Murod II (1421-1451) 20-yillarning boshlarida istilolarni yana qaytadan boshladi. 1422 yilda u Konstantinopolni uch marta qamal qilsa-da, ammo uni qo'lga ololmadi. 1430 yilda Solun shahri olinib, uning barcha aholisi qullarga aylantirildi.

1444 yilda turklarga qarshi yangi salib yurishi uyushtirildi. Unda polyaklar, chexlar, vengerlar, nemislar, qisman fransuzlar va boshqa g'arbiy evropalik ritsarlar qatnashgan edi. Varna yonidagi jangda (1444 yil 10 noyabr) ritsarlar tor-mor etildi. Shuning o'zi bilan Konstantinopolning halokati oldindan muqarrar qilib qo'yildi. Konstantinopol 1453 yil 29 mayda quladi. So'nggi Vizantiya imperatori Konstantin XI (1448-1453) edi. Sulton Murod II-ning taxt vorisi – sulton Muxammad (Mexmed II) (1451-1481) Konstantinopolni zabt etdi.

Muhammad (Mexmed II) 50-60 yillarda Bolqon yarim orolida Dunay bo'yidagi Serbiyani, Bosniyani, Gersegovinani va Albaniyani zabt etdi. Bolqon yarim oroliga qo'shni bo'lgan Valaxiya vassal sifatida qaram qilib qo'yildi. 70-yillarning o'rtalarida turklar Qrimni va Tanu (Azov) shaxrini bosib oldilar. Taxminan shu paytning o'zida Kichik Osiyoda Trapezund shahri, deyarli butun Anatoliya to Frot daryosigacha istilo qilindi. Biroq Muxammad (Mexmed II) ikki marta muvaffaqiyatsizlikka xam uchradi: u Belgradni ishg'ol qila olmadi, turklar uni 1456 yilda qamal qilgan bo'lsalar-da, maqsadlariga erisha olmadilar; shuningdek Rodos orolini xam zabt eta olmadilar.

XULOSA

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini e'lon qilgach jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Bu jarayon intellektual qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Chunki sobiq ittifoq tarixshunosligi tomonidan ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan mavzular ma'naviy jihatdan yaroqsiz holda ekanligi ikkinchidan esa tarixni o'rganishdagi ko'pgina masalalarni tarixni "qora dog"lari sifatida talqin qilinishi mustaqillikning ilk kunlaridanoq qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o'z aksini topdi.

Eng asosiy ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Oqibatda sovet tarixshunosligi nuqtai nazaridan o'rganilgan mavzular qaytadan ilmiy tadqiqot sifatida o'rganila boshlandi.

G'arbiy Rim imperiyasida German kabilalari tomonidan istilo kilingandan keyin xam Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U xatto uzini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayverdi. Latin tili yana uzok vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili bulib koldi. Lekin Sharqda imperiyaning davlat tili bo'lib koldi. Lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Ba'zi olimlar huddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydi.

Sharqiy imperiyaning yuqorida qayd qilib o'tilgan xususiyatlari natijasida uning varvarlarga bulgan munosabatlari ham boshqacha bir xarakterga ega bo'ldi. Vizantiya G'arbiy imperiyaga o'hshab varvarlar tomonidan bosib olinmadi ham, yashashdan to'htamadi ham. Jumladan, Vizantiya german qabilalari vessgotlar, ostgotlarning va boshqa qabilarning hujumlariga bardosh berdi, bu qabilalar esa, Vizantiyadan G'arb tomon kirib borib, u yerda o'zlarining varvarlik qiroliklarini tuzdilar. Vizantiya qadimgi Rimga xos bo'lgan ijtimoiy va siyosiy traditsiyalarni o'zida saqlab, ilgarigidek «Romeya davlati»ligicha qolib kelayotgan bo'lsada, uning ijtimoiy tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormoqda edi. Oqibat-natijada Vizantiya qam, «varvarlashtirishdan» qochib qutilmadi, bu narsa Bolqon yarim oroliga juda ko'pdan-ko'p slavyan qabilalarning kelishida nomoyon bo'ldi. Shunday qilib, shuni e'tirof etish mumkinki, oqibat natijada germanlar G'arbiy Rim imperiyasiga nisbatan qanday rol uynagan bo'lsalar, slavyanlar ham Vizantiyaga nisbatan (ozgina farq bilan) huddi shunday rol o'ynaydilar.

Vizantiya hali G'arbdagi varvar korolliklariga, shimoldagi slavyan qabilalariga, shimoldagi slavyan qabilalariga va O'rta Sharqda yangi fors (Eron) podsholigiga keskin ravishda qarama-qkarshi turuvchi quldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bo'lgan davrda, VI asrda imperator Yustinian hukmronlik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yustinian 527-565 yillarda podsholik uildi. U o'zidan oldin o'tgan Feodosiy dinastiyasi o'rniga kelgan yangi dinastiyaning vakili edi. Uning amakisi imperator Yustin I ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, illiriyalik savodsiz bir dehqon bo'lib, harbiy xizmatda shuhrat qozongan edi. Shunday qilib, O'rta dengiz vizantiyaliklar uchun yana «Bizning dengiz» (Mare nostrum) bo'lib qoldi. Yustinian o'z davlatining shimoliy chegaralarini qisman hunlar hujumidan, qisman slavyanlar siquvidan himoya qilishga juda zo'r berdi. Bolqon yarim orolida bir-biriga parallel ravishda uch qator qal'alar qurildi. Ammo bu mudofaa to'siqlari slavyanlarning Bolqon yarim oroliga siljishlarini to'htata olmadi. Slavyanlarning ko'pini imperiya yarim oroliga ittifoqchi – federatlar sifatida joylashtirishga majbur bo'ldi. Boshqalari hatto Bolqon yarim orolining janubida – Makedoniyaga va Egey dengizi bo'ylariga kolonist-yer egalari sifatida joylashtirildi. Yustinian imperiyani Qrimning janubiy qirg'og'idagi va qisman, Zakavkaz'edagi yerlarini qaytarib oldi. Lekin u Mesopatamiyaning bir qismini Eron shohiga berishga va sulh tuzilganidan keiyn unga katta-katta pul to'lab turishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, Yustinianning ulug' davlat tuzish siyosati bir qadar muvaffaqiyatli natijalar berdi, xolos. Shunday bo'lsada, uning vaqtida imperiyaning chegaralari ancha kengaydi. Keyingi vaqtlarda Vizantiya imperiyasi bunday yutuqlarga hech bir erisha olmadi.

Yustinianning podsholik qilishi sirtidan qaraganda gullab-yashnayotgandek ko'rinsa ham, xalq ommasi uchun juda og'ir bo'ldi. VI asrning birinchi yarmi bilan VII asrning birinchi yarmi

o'rtasida Vizantiyaning ijtimoiy tuzumidagi ziddiyat ayniqsa avj olgan edi. Bu vaqtda Vizantiyadagi quldorlik tuzumining emirilayotganligi ochiq ko'rinib turgan edi. Shu bilan birga imperiya territoriyasida varvarlarning, birinchi navbatda, slavyanlarning ko'plab ko'chib kelib o'rnatilishi Vizantiya imperiyasidagi sotsial tuzumning demokratlashuviga yordam berdi, quldorlik munosabatlarining yo'qolib borish protsessini tezlashtirdi.

VIII asrning boshlarida ham Vizantiyaning xalqaro ahvoli boyagidek juda og'ir edi. Arablar Kichik Osiyoga bostirib kirdilar. Ular Kipr va Rodos orollarini bosib oldilar. Arab qo'shinlari Konstantinopol yaqiniga kelib uni deyarli butun bir yilgacha (717-718) qamal qilib turdilar. Lekin arablar Konstantinopolni ololmadilar. Konstantinopolning qulay strategik mavqei, vizantiyaliklarning «greklar o'ti», deb atalgan o'tni ishlatishi, imperatorga ittifoqchilari bolgarlarning yordam berishi natijasida, arablar katta talafot ko'rib, chekinishga majbur bo'ldilar. Yangi saylangan imperator Lev III Isavr iste'dodli tashkilotchi va aobiliyatli oliy qo'mondon bo'lib chiqdi. U Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo'lib, yangi isavrlar dinastiyasiga asos solgan.

Isavriyalik imperatorlarning harbiy reformasi yaxshi natija berdi. Imperatorlar katta mablag' sarflamasdan (Suriya va Misr qo'ldan ketishi orqasida imperiya birmuncha vaqtgacha moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan) katta harbiy kuchga ega bo'la oldi. Fem qo'shinlari o'z okruglarini arablardan juda yaxshi himoya qildi. Vizantiya hukumati sal-pal kattarok ko'lamda hujum operatsiyasi olib borishga hali jur'at etolmadi. Lekin hukumatning siyosati cherkov guruhi o'rtasida katta norozilik tug'dirdi. Yangi dinastiyasi obro'sining kuchayishidan norozi bo'lgan dunyoviy zodagonlarning bir qismi ham cherkov guruhiga ko'shildi. IX asrning yarmidan to XI asrning yarmigacha Vizantiyani makedoniyaliklar dinastiyasi idora qildi. Vasiliy I Makedonlik bu dinastiyaning birinchi namoyandasidir (867-886). Makedoniyaliklar dinastiyasi idora qilgan vaqtda kelib Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o'ynadi. Arab, rus-slavyan, italyanlarning savdo-sotiqchilari Konstantinopolga kelib to'planib, uning juda katta shuxrat qozonishga va jonlanishiga sabab bo'ldi. Vizantiya imperatori tashqi savdodan shunday katta daromad oldiki, IX-X asrlarda G'arbiy Yevropadagi korol va imperatorlardan birortasi ham bunday daromad olmas edi. Shu bilan birga IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar havfi Vizantiya uchun qo'rqinchli bo'lmay qoldi. Makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtida Vizantiyaning feodallasuv protsessi tez avj olib bordi.

Varvarlar, G'arbiy imperiya viloyatlarida joylashib, tez sur'atda yangi ijtimoiy tartiblarga o'tishardi. Vujudga kelgan varvar qiroliklari o'rtasidagi chegaralar aniq va belgilangan emasdi. Nizolar nafaqat qurol vositasida, balki muzokaralar orqali ham hal etilardi. Varvarlar davlatlarining tashkil etilishi sayin ularda albatta o'zlarining diplomatiyasi paydo bo'lardi.

Sharqiy Rim imperiyasining (Vizantiyaning) diplomatik xizmati varvar qiroliklari uchun andoza qilib olinardi. Eski an'analarni saqlab qolgan Vizantiya diplomatiyasi butun o'rta asrlar diplomatiyasiga ulkan ta'sirini o'tkazdi.

Vizantiya diplomatiyasining asosiy vazifasi varvarlarni imperiyaga taxdid solish o'rniga unga xizmat qilishga majbur etish edi. Konstantinopolda varvarlarning knyazlik urug'lari orasidagi nizolarni ziyraklik bilan kuzatishardi. Eng muhimi ularning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, ustalik bilan nifoq solmoq, o'zaro nizolar orqali ularni zaiflantirmoq edi. Qo'shnilarni bilan shaxmat sipoxlari kabi muomala qilish mahorati Yustinian diplomatiyasiga xos xususiyat edi. U o'zaro nizolarni keltirib chiqarishni butun bir tizim darajasiga ko'tardi.

Bundan tashqari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga harbiy aralashuv Yustinian siyosatining vositalaridan biri edi. Bunday siyosat vandallar va ostgotlar bilan bo'lgan urushlarda yorqin ifodasini topdi.

Diplomatiya savdoning rivojlanishiga xizmat qilardi. O'z navbatida savdo aloqalarining kengayishidan Vizantiyada diplomatiyaning eng qudratli qurollaridan biri sifatida foydalanishardi.

Xristian dinini yoyish ham Vizantiya imperatorlarining eng muhim diplomatik qurollaridan biri edi. Jumladan, Rus davlatida xristianlikning yoyilishi Vizantiyaning katta diplomatik g'alabasi edi. Xristianlikka kiritilgan mamlakatlarda Vizantiyaning ta'siri o'rnatilardi. Vizantiyaga qaram bo'lgan ruhoniylar qatlami, savodlikning yagona sohibi sifatida varvarlar davlatlarida katta rol o'ynardi.

Birinchi vazir boshqaruvi ostida bo'lgan tashqi ishlar idorasi (magister officiorum, keyinchalik "logofet droma"), xodimlarning katta tarkibiga ega bo'lib, uning ixtiyorida barcha tillardan tarjimonlar mavjud edi, elchilarni qabul qilish marosimining murakkab tartibini ishlab chiqdi.

Konstantinopol saroyi qoshida elchilik xizmatining ma'lum qoidalari ishlab chiqildi. Elchi hukmdorning vakili edi va muzokaralarni faqatgina unga berilgan vakolatlar doirasida olib borishi mumkin edi. Ushbu qoidani buzgan elchi qattiq jazoga tortilardi. Faqatgina kamdan - kam uchraydigan holatlarda imperator vakillariga butun ma'suliyatni o'z bo'yniga olib mustaqil muzokaralar olib borishga ruxsat berilardi.

Odatda elchilar yuqori martabaga ega bo'lgan insonlar edi. Ko'pincha Vizantiyada elchilarga yuqori unvonlar maxsus berilardi-ki, agar ular avval bunday darajaga egalik qilmagan bo'lsa.

Vizantiya elchilarga o'zga mamlakatlarda xatti - harakat va yurish - turishning aniq qoidalarga rioya qilish amri qilingandi. Elchi xushmuomalaligini, saxiyligini namoyon etishi, o'zga saroyda ko'rganlarini barchasini maqtashi kerak edi, ammo buni shunday amalga oshirish lozim edi-ki, bu Vizantiya tartiblariga nisbatan gina sifatida namoyon bo'lmasin; u sharoitga qarab ish tutmog'i biron - bir narsaga o'zgacha usullar bilan etishmoqning imkoni bo'lgan taqdirda kuchdan foydalanmasligi lozim edi.

Rasmiy jihatdan elchilarga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik buyurilardi. Lekin amalda har doim ham bunga rioya qilinmasdi. Elchilar tuzgan shartnoma faqatgina imperator ratifikatsiya (tasdiqlangandan) qilganidan so'ng kuchga kirardi.

Elchilar daxlsizligi taomiyili varvarlar tomonida tez o'zlashtirib olindi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, varvar qirollarining elchiliklarida Vizantiya odatlariga xos bo'lmagan hususiyatlar uchraydi. Varvar a'yonlari orasida muzokaralarning yozuv - chizuv qismini mustaqil olib borishga qodir ma'lumotli insonlar kam edi. Shuning uchun qirollarining elchiliklarida odatda ruxoniylar qatnashardi. Bunday holat vizantiyaliklarda juda kam uchrardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т.3. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов. И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида, хавфсизликка тахдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: “Шарқ”, 1998.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011.
6. Ўзбекистон Республикаси ФА қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасининг қарори // Халқ сўзи.1998. 28 июл.
7. История Византии Под.ред. акад. С.Д.Сказкина. Т.1-3. М.1987.
8. История Византии. В трех томах. Том 1. М.; 1970.
9. История дипломатии. - М., 1959. Т. I, Т. II. (1963), Т. III (1965), Т. IV (1974).
10. Кулаковский Ю. А.. История Византии. Том 1., -М; 1989г.
11. Кулаковский Ю. А.. История Византии. Том 2., -М.; 1989.
12. Медведев И.П. Очерки византийской дипломатии. - Л., 1988
13. Семёнов. В.Ф. Ўрта асрлар тарихи. Тошкент.; 1973.
14. Сказкин С.Д. История международных отношений и дипломатия в среднее века. - М., 1948.

Qo'shimcha adabiyotlar

15. Ахмад Мухаммад Турсун. Зукколар китоби. - Т.: Мухаррир, 2010
16. Бекмухамедов Х. Тарих терминлари изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи. 1978.
17. Виппер Р.Ю. История средних веков. Курс лекций. Санкт-Петербург. 2001
18. Всемирная история в 10 томах. Том-3. – М; 1987
19. История средних веков. В 2-томах. том 1.М.2005.
20. Кандан А.Т. Древняя и город В Византии IX -X вв. М.1960 й.
21. Лившиц Е.Э. Право и суд в Византии в IX- XIII вв. –Л; 1976
22. Удалцова З.В. Византийская культура Москва – 1988 й.
23. Удальцова З. В. Законодательные реформы Юстиниана. М, 1985
24. Удальцова З. В. Италия и Византия в XI веке. –М; 1977
25. Ўрта асрлар тарихидан изоҳли луғат. Тошкент.; 1979.
26. Успенский Ф. И.. История Византийской империи. М.; Мысль. 1996.
27. Фомченко А.П. Ўрта асрлар курсига оид методик кўрсатмалар. Т. 1973.
28. Фомченко А.П. Ўрта асрлар тарихидан изоҳли луғат. Тошкент 1979.
29. Хрестоматия по истории средних веков. Часть 1.Москва.;1980.
30. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. М. 1961.

Internet manzillari

- <http://www.grid.rug.nl/ahc/>
- <http://www.Librorary.Byu.edu/-rdh/eurodocs/>
- <http://www.history.hanover.edu/texts.htm>
- <http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html>
- <http://www.english.hss.cmu.edu/history>
- <http://www.ukans.edu/history/vl/>
- <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html>
- <http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/>
- <http://classics.mit.edu>
- <http://www.washlaw.edu/forint/>
- <http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm>

